

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TABIY FANLAR FAKULTETI

**IQTISODIY VA IJTIMOYIY GEOGRAFIYA
KAFEDRASI**

**QISHLOQ JOYLARI AHOLISINI
O‘RGANISHNING IQTISODIY GEOGRAFIK
JIHATLARI**

(Bulung`ur tumani misolida) mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «Geografiya» ta’lim yo’nalishi
bitiruvchi 4 kurs talabasi Ashurova N.

ILMIY RAHBAR: ass.
L.Ibragimov

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi.

_____ sonli bayonnomasi «_____» _____ 2013 yil

SAMARQAND – 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....

I. BOB. QISHLOQ JOYLAR AHOLISINI O`RGANISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI.....

1.1. Qishloq joylar aholisini o`rganishning nazariy masalalari.....

1.2. Qishloq joylar aholisining iqtisodiy geografik jihatlatlari.....

1.3. Qishloq joylar geografiyasini o`rganish va aholini hududiy tashkil etish.....

II. BOB. BULUNG`UR TUMAN QISHLOQ JOYLAR AHOLISINING DEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI.....

2.1. Bulung`ur tuman qishloq joylar aholisini hududiy joylashishi.....

2.2. Tuman qishloq joylar aholisining tabiiy harakati.....

2.3. Bulung`ur tuman qishloq manzilgohlarining tarkibiy tuzilishi.....

III. BOB. BULUNG`UR TUMANI QISHLOQ AHOLI MANZILGOHLARINING RIVOJLANISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....

3.1. Qishloq joylar manzilgohlarining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi muammolari va istiqbollari.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimizda qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirish, agrosanoat majmuida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, qishloq aholisining hayot darajasi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy saviyasini oshirish mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab e'tiborimiz markazida bo'lib kelayotgan ustuvor masala hisoblanadi. Shunga ko'ra, 2009 yil yurtimizda «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb nomlanib, bu borada maxsus davlat dasturi qabul qilingan edi. Prezidentimiz I.Karimov 2009 yilning 5 dekabridagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida mazkur dastur doirasida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar to'g'risida batafsil to'xtab o'tdi.

O'zbekistonda bozor munosabatlarini izchil amalga oshirish, aholi turmush sharoitini yaxshilash ko'p jihatdan qishloq joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish va ularning samaradorligini oshirishga bog'liq. Respublikamiz milliy iqtisodiyoti eng avvalo qadimdan rivojlanib kelgan qishloq xo'jaligiga asoslanadi.

Qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning asosi bo'lgani bois, u bilan qator sanoat tarmoqlari (eng avvalo yengil va oziq-ovqat sanoati), transport, qurilish, suv xo'jaligi va boshqalar bog'liq. Binobarn, aytish mumkinki, qishloq xo'jaligi va uning yetakchi tarmog'i paxtachilik asosida murakkab tarkibga ega bo'lgan ishlab chiqarish majmuasi shakllangan. Qolaversa, u bilan og'ir sanoatning ayrim tarmoqlari, masalan, qishloq xo'jalik mashinasozligi, kimyo, elektr - energetika, qurilish materiallari sanoati ham ma'lum darajada aloqador.

Ayni vaqtda qishloq joylarda respublika aholisining asosiy qismi (51.7 %) yashaydi va bu ko'rsatkich, ko'pchilik dunyo mamlakatlaridan farq qilib, yildan-yilga oshib bormoqda. Garchi qishloq tumanlarida ham aholining tug'ilishi va tabiiy ko'payishi pasayib borayotgan bo'lsada, u shahar joylarga qaraganda ancha

yuqori. Shu bilan birga qishloq aholisining o`shishi va joylanishi, qishloq manzilgohlarining tarkibiy tuzilishi mamlakatimizning turli hududlarida o`ziga xos xususiyatlarga ega.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, O`zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qishloq xo`jaligi va qishloq aholisining o`rni katta. Bu, o`z navbatida, qishloq joylarda zamonaviy infratuzilma ob`yektlarini yaratishni ham ta`lab qiladi.

Qishloq joylar, o`z navbatida, turli funksiyalarni bajaradi, lekin ularning eng muhim vazifasi qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan iborat. Shu bilan birga qishloq joylarda rekreatsiya, turizm, transport kabi tarmoqlar ham rivojlanib bormoqda, ularda ham yengil va oziq-ovqat, qurilish materiallari sanoatining korxonalar mavjud. Binobarin, "qishloq xo`jaligi" tushunchasini faqat bevosita dehqonchilik va chorvachilik, agrar soha bilan chegaralash haqiqatga to`g`ri kelmaydi va u ancha keng qamrovli mazmunga ega. Shu nuqtayi nazardan qishloq xo`jaligi jahon xo`jaligi, xalq xo`jaligi yoki milliy va mintaqaviy iqtisodiyot qatorida umuman xo`jalik (iqtisodiyot) tizimining birlamchi bo`g`ini sifatida qaralishi mumkin. Qishloq joylar tabiatini shaharlarga qaraganda tozaroq, va bu hududlarda inson hayot faoliyatining ritmi o`ziga xos xususiyatga ega. Qishloq joylar shaharlar sanoatini xom ashyo bilan, shahar aholisini kundalik istemol mollari, mehnat resurslari, qolaversa, toza havo bilan ta`minlaydi. Ayni vaqtda qishloq joylarda shaharlar bilan bog`liq yoki ularga xizmat qiluvchi ob`yektlar, masalan, omborxonalar, bozorlar, mozorlar va boshqalar tashkil etiladi.

Demak, aytish mumkinki, qishloq va qishloq joylar to`grisidagi tushunchaning vujudga kelishi shaharlarning paydo bo`lishi va urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi bilan bog`liq. SHu ma`noda urbanizatsiya, yangi turli mamlakat yoki boshqa hududlarning shaharlashuvi qishloqlarsiz amalga oshmaydi. Qishloq aholi manzilgohlariga shahar maqomining berilishi, shaharlarning qishloq hududlari hisobidan kengayib borishi, ularga qishloq aholisining ko`chib kelishi yoki migratsiyasi urbanizatsiyaning rivojlanishiga sabab bo`ladi. Shu nuqtai - nazardan bunga ma`muriy qishloq tumanlari markazi vazifasini bajaruvchi va amalda oddiy qishloqlardan farq qiluvchi taxminan 130 shahar va shaharchalarni

qo'shsak, bu raqam yanada oshadi. Agar mamlakatimiz iqtisodiyotini qishloq xo'jaligi aholisining asosiy qismini qishloq aholisi tashkil etishini inobatga olsak, respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida qishloq joylar ahamiyatining naqadar muhimligi o'z-o'zicha ayon bo'ladi. Aynan shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy siyosatida qishloq joylarda ustuvor ahamiyat berilmoqda, qishloq joylarda zamonaviy ijtimoiy infrastruktura tizimini yaratish, mulkchilikni turli shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy-iaqtisodiy islohatlarni izchil amalga oshirish muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda aytish mumkinki, qishloq joylari aholisini o'rganishning iqtisodiy geografik jihatlarini respublikamizning hozirgi sharoitida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ishning asosiy maqsadi qishloq joylari aholisini geografik tahlil etish, demografik muammolarni hal qilish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi **vazifalari** belgilandi:

- **Qishloq joylar aholisini o'rganishning nazariy masalalari tadqiq etish;**
- **Qishloq joylar aholisining iqtisodiy geografik jihatlarini ochib berish;**
- **Bulung'ur tuman qishloq joylar aholisini hududiy joylashishi takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish;**
- **Tuman qishloq joylar aholisining tabiiy harakati o'ziga hos xususiyatlarini tadqiq etish;**
- **Tuman qishloq manzilgohlarining tarkibiy tuzilishi iqtisodiy geografik baholash;**
- **Qishloq joylar manzilgohlarining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish muammolarini bartaraf etish va istiqbollari belgilashga doir ilmiy jihatlarini ko'rsatib berish.**

Ilmiy yangiligi: Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi sifatida Bulung'ur tumani qishloq joylari aholisi ilk bor iqtisodiy geografik nuqtai-nazardan o'rganildi. Bizga ma'lumki hozirga vaqtga qadar olib borilgan tadqiqotlar davomida tuman qishloq aholisi va uning joylashuvi va demografik salohiyati

faqatgina Samarqand viloyati tarkibi doirasidagina qisman o'rganilgan halos. Mazkur malakaviy bitiruv ishida yuqoridagi keltirilgan jarayonlar to'liq ko'rib chiqildi. Ushbu ishning ilmiy yangiligi sifatida quyidagilar asos qilib olindi:

- Tuman qishloq joylari aholisining iqtisodiy geografik jihatlatlari yoritib berildi.
- Tuman qishloq joylarining demografik solohiyati atroflicha tahlil etildi.
- Tuman qishloq manzilgohlarining tarkibiy tuzilishi aholining joylashuvi nuqtai-nazaridan tadqiq etildi.
- Qishloq joylar manzilgohlarining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi.

Ob`ekti: Malakaviy bitiruv ishining ob`ekti sifatida Bulung`ur tumani qishloq joylari aholisi olingan. Uning **predmeti** esa qishloq joylari aholisini o`rganishning iqtisodiy geografik jihatlarini Bulung`ur tumani misolida o`rganishdan iborat.

Ishning metodologik asosi: Ushbu vazifalarni hal etishda muallif mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, davlat qarorlari, respublika prezidenti farmonlari va asarlari, mazkur soha doirasida yaratilgan nazariy bilimlarga asoslangan. Shuningdek, Respublika va Samarqand viloyati statistika boshqarmalari va tuman statistika bo`limlari ma'lumotlari, darslik va o`quv qo`llanmalardan keng foydalanilgan.

Muammoning o`rganilganlik darajasi. Qishloq joylari aholisini o`rganishning iqtisodiy geografik jihatlari umuman demografik holati bilan respublikamizda va xorijda ham ko`plab olimlar shug`ullanishgan. Masalan, MDH davlatlari olimlaridan Adamchuk V.V, Blyaxman A.S, Zbishko B.G, Ishin V.V, Kolosnitsina M.G, Kostin L.A, Kuzmin S.A, Maslova I.S, Nikiforova A.A, Odegov Yu.G va boshqalar munosib hissa qo`shganlar. Bu muammolarni o`rganishga o`zbekistonlik olimlardan Soliyev A.S, Nazarov M, Tojiyeva Z.N, Buriyeva M, Murtazayev B.Ch, Murtazina R.B, Ota-Mirzayev O.B, Rahimova D.N, Rahimova N.X, Ubaydullayeva R.A va boshqa olimlarning ilmiy ishlari bag`ishlangan.

Ishni bajarishda geografik taqqoslash, demografik tahlil, statistik, kartografik, tarixiylik kabi usullardan foydalanilgan.

Tarkibiy tuzilishi: Mazkur malakaviy bitiruv ishi kirish, uchta bob, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat. Ishning birinchi bobi asosan, qishloq joylar aholisini o`rganishning nazariy masalalari bag`ishlangan. Unda qishloq aholi punktlari unda yashovchilar soni, joylashgan geografik o`rni, bajaradigan funksiyasiga ko`ra shaharlardan farqli tomonlari. qolayversa shaharlar uchun qo`yilgan talablarning shart-sharoitlari xaqida tuxtalib o`tilgan.

Ishning asosiy qismi uning ikkinchi bobida bajarilgan bo`lib unda bevosita tuman aholisining joylashuvi, qishloq aholi punktlari chuqur o`rganilgan. Shuningdek, ishda tumandagi demografik holat, mehnat resurslari, migratsiya darajasi, qishloq aholi punktlari xududiy joylashuvi chuqur tahlil qilingan holda o`rganilgan. Ishning keyingi uchinchi bobida Bulung`ur tumanining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi va muammolari va kelajak istiqbollari to`lalgicha tahlil qilingan. Ishning xulosa qismida o`rganilgan muammolarni xal qilish buyicha takliflar ham ishlab chiqilgan. Bitiruv ishining umumiy hajmi 70 betni tashkil etgani holda, unda uchta karta, 8 ta jadval, 5 rasm va chizmalar keltirilgan, foydalanilgan adabiyotlar manbai 25 ni tashkil etadi.

I. BOB. QISHLOQ JOYLAR AHOLISINI O`RGANISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI

1.1. Qishloq joylar aholisini o`rganishning nazariy masalalari

Qishloq aholi punktlarining aniq bir ta`rifi yo`q, ammo aytish mumkin-ki, shahar aholi punktlari talablariga javob bermaydigan barcha aholi punktlari qishloqlar hisoblanadi. Shuningdek, uncha katta bo`lmagan sanoat, transport, o`rmon xo`jaligi, dam olish uylari, sanatoriyalar qoshida paydo bo`lgan kichik posyolkalar aholi punktlariga tegishli bo`ladi. Dunyo bo`yicha qishloq aholi punktlarining umumiy soni mavjud emas. Har bir davlat o`zining ma`muriy-hududiy tuzilishidan kelib chiqib qishloqlarni ajratishadi. Masalan, O`zbekistonda rasmiy shahar yoki shaharcha nomini olmagan, aholisi 2000 kishigacha bo`lgan, aholisining deyarli barchasi qishloq xo`jaligida va u bilan bog`liq tarmoqlarda band bo`lgan aholi punktlarini qishloq aholi punktlariga kiritish mumkin.

SHaharlar qaysi funksiyani bajarmasin, qaysi kattalik va salohiyatga ega bo`lmasin qishloq aholi punktlarisiz, ya`ni qishloqlarsiz shaharga aylanmaydi. Bu o`rinda aholi punktlarining ikkinchi yirik tarmog`i qishloqlarni, qishloq aholi punktlarini geografik o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer shari aholisining 50 foizi (2009-y) shaharlardan tashqarida qishloqlarda yashaydi. Jamiyat taraqqiyoti va hududiy mehnat taqsimotidagi o`zgarishlar tufayli kishilarning hududiy ijtimomiy va tarixiy shakl topgan birligi qishloqlar vujudga kelgan.

Qishloq aholi punktari unda yashovchilar soni, joylashgan geografik o`rni, bajaradigan funksiyasiga ko`ra shaharlardan farq qiladi. Qolayversa shaharlar uchun qo`yilgan talablarning birortasiga qishloqlar javob bermaydi.

A.S. Soliyev ta`biricha, qishloq aholi geografiyasiga (geourbanistikaga) qaraganda uncha “omadi kelmagan” ilmiy yo`nalish hisoblanadi. Qishloq aholi punktlarining rivojlanishi qishloq xo`jaligi tarmog`I bilan chambarchas bog`liq. Biroq, aholi qishloq xo`jaligida band bo`lmasdan sanoatda, transportda va boshqa

tarmoqlarda ishlaydigan aralash funksiyali qishloq aholi punktlari ham mavjud. SHu boisdan dunyodagi davlatlar aholisimni hududlar bo'yicha qaraganda qishloq aholisi alohida statistik ko'rsatkichni qishloq xo'jaligida band bo'lganlar boshqa ko'rsatkichni tashkil etadi. Masalan, O'zbekiston aholisining 48 foizi qishloqlarda yashaydi, 28 foizi qishloq va o'rmon xo'jaligida band.

Aksariyat qishloq aholi punktlari bevosita yer bilan chambarchas bog'langan. Yer qishloq aholisining asosiy ishlab chiqarish vositasi, ularni boqadigan zamini hisoblanadi. Biroq yerlarvdan foydalanishdagi va qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvdagi tafovutlar iqlim, relyef hamda tabiiy sharoiti bilan uzviy bog'langanligi tufayli bir-biridan keskin farq qiladi. Bu esa qishloqlardagi ishlab chiqarish tiplarining xilma-xilligiga olib keladi. Qishloq joylarda, qishloq xo'jaligida bevosita band va ma'lum bir qismi esa qishloq xo'jaligida band bo'lmagan aholi ham yashaydi. SHu boisdan, qishloq xo'jaligida band bo'lmagan qishloq aholisini uchta guruhga ajratish mymkin: 1) qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi tarmoqlarda (savdo, xizmat ko'rsatish, maorif, sog'liqni saqlash va boshqalar) ishlovchilar;

2) shaharga yaqin bo'lgan korxonalar va muassasalarda ishlovchilar;

3) qishloq joylarda joylashgan sanoat va boshqa korxonalarda bandlar. Qishloq aholisining bunday o'ziga xos xususiyati turli davlatlarda bir-biridan tubdan farq qiladi. Jumladan, iqtisodiyotning asosimni qishloq xo'jaligi tashkil etadigan mamlakatlarda aholining katta qismi qishloq xo'jaligi bilan bog'langan bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda esa aksincha, qishloq joylardagi aholi qishloq xo'jaligi bilan juda kam shug'ullanishadi.

Tabiiy sharoit qishloq aholisi punktlaridagi xo'jalik tarmoqlarining ixtisoslashuviga hamda shu asosda kichik-kichik ixtisoslashgan qishloqlarning paydo bo'lishida muhim ro'l o'ynaydi. Masalan dehqonchilik, qoramolchilik, o'rmon xo'jaligi, tog'-kon va hokazo.

Archa qishloq aholi punktlari shaharlar singari o'z bajaradigan funksiyasiga qarab ushta asosiy guruhga birlashtiriladi:

1. Qishloq xo'jaligi

2. Qishloq xo`jaligi bilan bog`lanmagan
3. Aralash qishloq aholi punktlari

Qishloq xo`jaligi bilan bevosita bog`liq bo`lgan aholisi qishloq xojaligi mazsulotlari yetishtirish va uni qayta ishlash bilan band bo`lgan aholi punktlari qishloq xo`jaligiga ixtisoslashgan aholi punktlari deb yuritiladi. Bunday qishloqlar aholisi odatda dehqonchilik, bog`dorchilik, uzumchilik hamda chorvachilik bilan shug`ullanadi.

Ma`lumki yer yuzi qishloq aholisining asosiy qismi qishloq xo`jaligida band. Qishloq xo`jaligining zonal ixtisoslashuvi, qishloq aholi punktlarining zonal farqini keltirib chiqaradi. Buesa nafaqat qishloq aholi punktlari kattaligi, funksional tiplari, balki ularning joylanishiga ham ta`sir etadi. Masalan, o`rmon zonlaridagi aholining o`rmon xo`jaligida bandligi, cho`l zonasidagi qishloqlarning mayday va tarqoqligi, aholisining chorvachilik va dehqonchilik bilan shug`ullanish va boshqalar. Qishloq xo`jaligi funksiyasini bajaruvchi aholi punktlari unchalik katta bo`lmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda jami aholi punktlarining 30 foizidan 70 foizigacha, rivojlangan davlatlarvda deyarli 100 foizini tashkil etadi.

Qishloq xo`jaligi bilan bog`lanmagan ikkinchi guruh aholi punktlari miqdori jihatdan o`sib bormoqda. Bu aholi punktlari yana bir bir necha guruhlariga ajratiladi:

1. sanoat korxonalarini posyolkasi
2. transport
3. o`rmon sanoati
4. baliqni qayta ishlash
5. dala-hovli va hokazolar

Mazkur qishloq aholi punktlarida xizmat ko`rsatuvchi soha tarmoqlar o`sha joy geografiyasiga mos va hos holda rivojlanadi. Aytaylik, kichkina temir yo`l stansiyasi yoki kon atrofida juda katta qishloq aholi manzilgohi vujudga kelmaydi, ba`zi posyolkalar vaqtincha ham hisoblanadi (dala hovli, sanatoriya, stansiyalar).

Qishloq aholi punktlarining ikkinchi guruhiga bir qism aholi qishloq xo`jaligida, qolgani transport, qurilish va xizmat ko`rsatish sohalarida band

bo`lgan qishloq xo`jaligi bilan bog`lanmagan aholi punktlari kiradi. Bunday aholi punktlari odatda, “temir yo`l bekatlari, meteorologik stansiya, rekratsiya va turistik sohalar, qazilma boyliklar, suv omborlari va kanallar asosida shakllangan. Bu qishloqlarning aholisi ham uncha ko`p bo`lmaydi”. Ko`pgina tuman ma`muriy markazlari ushbu guruhiga kiradi. Aynan, mana shunday ma`muriy markaz funksiyasini bajaruvchi punktlar qishloq aholi punktlari orasida o`zining yirikligi, agrar-industrial xususiyati bilan asosiy o`rinni egallaydi. SHuningdek, ushbu aholi punktlari nafaqat ma`muriy- tashkiliy markaz, balki, ma`daniy, savdo-sotiq markazlari hamdir. Qolayversa, bunday qishloq aholi punktlarida xom ashyo va mehnat omiliga tayanilgan iqtisodiyot tarmoqlarining kichik korxonalari joylashadi, ya`ni o`rmon, yog`och tayyorlash, ovchilik, transport xizmati (temir yo`l, quvur o`tkazish va boshalar). Qishloq xo`jaligi bilan bog`lanmagan qishloq aholi punktlarida yashovchilar holiga rekratsion xizmat ko`rsatishni, tabiatni asrash, qo`riqxonalarini qo`riqlash kabi vazifalarni bajaradi.

Qishloq xo`jaligi bilan bog`lanmagan aholi punktlarini eniga va bo`yiga qarab o`sib bormoqda. CHunki, aksariyat mamlakatlarda qishloq aholisi solmog`ining kamayishi, suburbanizatsiya masshtabi kengayishi, transport va xizmat ko`rsatish sohalarining ko`payishi ushbu turdagi aholi punktlari nisbiy va mutloq miqdorda ortishiga olib kelmoqda. Ammo, bunday aholi punktlari kichik, mayda qishloqlardan iborat bo`ladi. Sababi uncha katta bo`lmagan temir yo`l stansiyasi, foydali qazilma koni, kichik davolanish, dam olish maskanlaridan boshqa qishloqning rivojlanishi uchun zarur bo`lgan omillar yetarli bo`lmagan holda aholi manzilgohi kichikligicha qoladi. Xatto, foydali qazilma konlari ba`zida tashkil topgan kichik qishloqlar vaqtinchalik xususiyat kasb etadi. Kon-qazuv ishlari yakunlanishi bilan bu qishloqlarni ko`chirishga to`g`ri keladi.

Aholisining aksariyati qishloq xo`jaligida, ma`lum bir yashovchilar sanoatda, qurilishda xizmat ko`rsatish yoki boshqarishda ishlaydigan qishloq aholi punktlari aralash qishloqlar deb ajratiladi. Aralash tipdagi qishloqlar ikki sohalarining rivojlanishi yoki odatda qishloq xo`jaligi va u bilan bog`liq sanoat korxonalari negizida vujudga kelgan. Bunday qishloqlarning demografik salohiyati

nisbattan katta bo'lishi mumkin. Demak, qishloq joylarning katta-kichikligini ularning bajaradigan funksiyasi belgilab beradi. Bu aholi punktlari geografiasining eng muhim qonuniyatlaridandir". Bu xildagi aholi punktlari o'rtasida eng ko'p tarqalgan agrar-industrial punktlar hisoblanadi. Holbuki, aralash qishloqlar funksional jihatdan agrar-industrial, mahalliy- ma'muriy, madaniy- ma'ishiy markaz, shahar atrofi hududlariga ajraladi.

Rivojlangan mamlakatlarda qishloq aholi punktlaridan eng avvala iqtisodiy jihatdan fooyda beradigan, ya'ni fermer xo'jaliklariga e'tabor qaratiladi.

Ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan xo'jaliklarda ishlovchi va yashovchilar uchun barcha sharoitlar, ya'ni ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari tezlik bilan yo'lga qo'yiladi, rivojlantiriladi. Kamunikatsiya tizimi, maktab, bog'cha, sog'liqni saqlash, uyda xizmat ko'rsatish kabi qator xizmatlar amalgam oshiriladi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidayoq qishloqlarda ishni tashkil etish maqsadida G'arbda nemis geograflari V. Kristallyor va A. Lyosh markaziy o'rinlar g'oyasini o'ylab topishgan edi. Ularning g'oyasiga binoan, shu rayondagi boshqa barcha aholi punktlarini aholi manzilgohi markaziy o'rinda bo'lishi lozim. Eng kichik markaziy joy deb, aholisi 1000 kishidan iborat, kunlik ehtiyoj uchun kichik bozor, militsiya uchastkasi, mayday ustaxonalari bor posyolkalarni hisoblashdi. Novbatdagi yirikroq markaziy joyda bank, boshlang'ich maktab, kutubxona, ixtisoslashgan do'konlar joylashadi. Har bir keyingi markaziy joy bajaradigan funksiyasiga ko'ra eniga va bo'yiga kengayib borayveradi yoki bu aholi punktlarida turli soha va tarmoqlarning murakkab tizimlari o'rin olgan bo'ladi.

Qishloq aholi punktlarini klassifikatsiyalashda aholiyligi ko'rsatkichidan foydalanadi. S.A. Kavalyov tomonidan qishloq aholi punktlari aholiyligiga ko'ra quyidagicha klassifikatsiyalangan (1963. 36 bet).

- 1) aholisi 10 kishidan kam aholi punktlari (yakka hovli, yakka yashash joyi);
- 2) 1000 kishigacha yashovchilari bor kichik aholi punktlari;
- 3) 200-500 kishigacha, bunga fermer xo'jaligi, bir xo'jalik brigadasi misol bo'la oladi;

- 4) 1000-2000 aholisi bor qishloq aholi manzilgohi, bular endi nisbatan yirik hisoblanadi. Xo`jalik markazi misol bo`la oladi;
- 5) 3000-5000 aholisi bor yirik qishloq aholi manzilgohi. Bularga shahar darajasidagi qulayliklarga ega aholi punktlarini kiritish mumkin.

Qishloq aholi punktlarini geografik tadqiq etishda ularda yashovchi aholi soniga, o`shishi, joylashishi, zichligi va taqsimlanishiga alohida e`tibor berish talab etiladi. Demografik jarayonlarni aholining mehanik harakati, tarkibi kabi xususiyatlarni ham tahlil qilish aholi geografiyasining muhim vazifalaridan biridir. Aholisining rivojlanishi va joylanishiga daxldor jarayonlarni geografik nuqtayi nazaridan o`rganish o`sha hududdagi qishloq aholi punktlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilash, muammolarini hal etish imkonini beradi. Holbuki, qishloq aholi punktlari aholisi hayotida uning ahamiyati shaharlar singari o`ta yuqori emas. Qishloq aholi punktlari, ayniqsa qishloq xo`jaligi uchun yer hosildorligi alohida ro`l o`ynaydi. Qishloqlar shaharlarga nisbatan tabiiy sharoit bilan chambarchas bog`liq bo`ladi.

1-jadval

Qishloq aholi punktlarining toifalanishi

Aholi punktlarining toifasi	Aholi soni	Aholi punktlarining soni	Jamiga nisbatan foizda
Kichik aholi punktlari	100 dan 1000 kishigacha	5892	49,8
O`rtacha aholi punktlari	1000 dan 3000 kishigacha	4527	38,3
Katta aholi punktlari	3000 dan 5000 kishigacha	1026	8,7
Yirik aholi punktlari	5000 kishidan ortiq	375	3,2
Jami:		11820	100

Modomiki, qishloq xo`jaligi bevosita geografik sharoit ta`sirida rivojlanar ekan, uning qishloqlar geografiyasiga ta`siri ham hech qanday shubha qoldirmaydi. Qolayversa, mahalliy qurilish materiallar qum, shag`al, ohak, tosh va boshqalar

ham qishloqlar qiyofasining shakllanishida muhim ro'l o'ynaydi. Soy va boshqa gidrologik shahobchalar, tor tog' vodiylarida joylashgan qishloqlar uylari terrasimon, aholi punktlari esa cho'zinchoq, tasmaimon hududiy shaklga ega bo'ladi". Umuman olganda tabiiy sharoit xususiyatlari, ya'ni suv bug'lari, vodiy, demografik sig'm kabilar qishloqlar katta-kichikligini belgilovchi omillardan hisoblanadi. Chunki qishloq aholisi yashashi, turmush tarsi, moddi ta'minoti kabi masalalar bevosita yer bilan chambarchas bog'liq. SHuningdek, shahar aholi punktlarining farqli ravishda qishloqlar uchun tabiiy muhit, tabiiy sharoit xo'jalik yuritishi (dehqonchilik, chorvachilik, o'rmon xo'jaligi, tog'-kon sanoati), umuman qishloq aholi punktlari shakllanishida yetakchi omil hisoblanadi. Tabiiy muhit, sharoit qishloq aholisi joylanishida, xo'jalik yuritishda, aholi manzilgohi uchun joy tanlanishida yaqqol kuzatiladi. Masalan, Mirzacho'ning iqlimi, tabiiy sharoiti, dehqonchilik, xususan paxtachilik va polizchilik uchun qulayligi, aholini hududiy tashkil etishga sabab bo'ldi. Natijada, qishloq aholi punktlari shakllandi, rivojlandi. Qolayversa, qadimdan aholi suv bo'ylarida, yashash uchun qulay joylarda o'mashganligi tabiiy sharoiti yaxshi hududlarda turli kattalikdagi aholi punktlarining tarkib topishiga va to'planishiga olib kelgan.

Yuqorida aholisining soniga qarab qishloq aholi punktlari tabaqalarga ajratilgani hamma vaqt va hamma joyda bifer xil degani emas. Qolayversa, bunday tabaqalanish bugungi qishloq aholi punktlari talabiga javob bermaydi. Sababi 10 kishigacha bo'lgan aholi manzilgohi hozir deyarli uchramaydi. Odatda, ovchilik, qoramolchilik kabi tarmoqlarda aholi tarqoq holda joylashishi kuzatiladi. Bunday aholi punktlaridagina yashovchilar soni 10 kishigacha boradi. SHu boisdan, boshqa adabiyotlarda qishloq aholi manzilgoxi aholining quyi chegarasi 200, ayrimlarida 500 kishi, deb qabul qilingan. Barcha hollarda ham tabaqalashtirish qishloq aholi punktlari sharoitlaridan kelib chiqqan holda amalgam oshiriladi. Jumladan, qishloq aholi punktlarini ularning katta kichikligiga qarab quyidagi sinflarga (klasslarga) bo'lishimiz mumkin:

kichik - aholisi 200 kishigacha;

o'rta - 201 - 500 kishigacha;

katta - 501 -1000 kishigacha;

yirik - 1001 kishi va undan ko'p; Bizning respublikamiz qishloqlarining aholiyiligi ham aynan shu mezonga birmuncha mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2008 yilda 11 831 ta qishloq aholi punktlari bo'lgan, ulardagi aholi soni 17374.0 ming kishini tashkil etgan. Mazkur qishloq aholi punktlarining 54 foizi kichik, o'rta va katta qishloqlardan iborat qolgani yirik qishloqlardir. Mamlakat qishloq aholisi demografik salohiyatining yildan –yilga ortib borishi qishloqlarning tobora yiriklashuviga, ular orasidagi masofalarning yaqinlashishiga, kichik va mayday qishloqlarning qo'shilib ketishiga olib kelmoqda . Bu esa katta va yirik qishloqlar miqdori ortishiga sabab bo'ladi.

Kelajakda qishloq aholi punktlarini shahar aholi punktlariga alohida olib tadqiq qilish dolzarb masaladir. Chunki, qishloq aholi punktlarini aholi geografiyasi fani doirasida o'rganib, shahar aholi punktlariga nisbatan ba'zi tomonlari alohida tadqiqot talab qilishini guvohi bo'lamiz. Kelajakda, aksariyat qishloqlar nafaqat mahsulot yetkazib beruvchi, balki uni qayta ishlovchi, xizmat ko'rsatuvchi vazifalarni ham bajarilishini unutmazlik lozim.

I.2. Qishloq joylar aholisining iqtisodiy geografik jihatlatlari

Qishloq joylar shahar va shaharchalardan tashqaridagi hududlar bo'lib, ularda qishloq xo'jaligida muntazam foydalanadigan yerlar hamda doimiy aholi manzilgohlari (punktlari) mavjud bo'lishi kerak. Demak, qishloq joylar geografik kartada areal, maydon ko'rinishida, qishloq aholi punktlari esa ular ichida nuqtasimon shakldagi jamiyatning ijtimoiy-hududiy tashkil etish birligi hisoblanadi.

Qishloqlar shaharlarga qaraganda aholi yashash joyining qadimiyroq shaklidir. To'g'ri, qadimda dastlabki aholi manzilgohlari shahar yoki qishloq deb atalmagan. Qishloqlarning vujudga kelishi ijtimoiy mehnat taqsimotida sug'orma dehqonchilik madaniyati rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Sug'orma dehqonchilik

avvallari tabiiy suv oqimidan foydalanilgan holda olib borilgan, keyinchalik sug'orish inshootlari (to'g'on, kanal va boshqalar) va vositalari (chig'iriy) asosida rivojlangan. Albatta, bunday inshootlar yoki hozirgi zamon tili bilan aytganda, irrigatsiya infratuzilmalarini yaratish, qo'riqlash va ulardan foydalanish keng jamoatchilik mehnatini, aholini bir joyda va birgalikda tashashini taqozo etgan. SHunday qilib, jamoa (sotsium, kishilarning hududiy birligi, turg'un aholi manzilgohlari paydo bo'lgan. Sug'orma dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi, shu asosda hunarmandchilik va savdoning rivojlanib borishi natijasida ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimotining navbatdagi muhim bosqichi boshlangan. Jamiyat hayotidagi bunday o'zgarishlar qishloqlardan shaharlarning ajralib chiqishiga va rivojlanib borishiga sabab bo'lgan. Aynan shu davrdan boshlab ijtimoiy hayotni hududiy tashkil etishning ikki shakli, ya'ni qishloqlar va shaharlar vujudga kelgan.

E'tirof etish joizki, shaharlar qishloqlardan ajralib chiqqani aksincha emas. Binobarin, aytish mumkinki, dastlabki shaharlarning kelib chiqishi qishloqlar bilan bog'liq bo'lgan. SHu bois, Yer yuzasining eng qadimiy shaharlari ham aynan Yaqin SHarq, hozirgi Isroil, Iordaniya, Suriya mamlakatlari hududida shakllangan.

Qishloqlarning bunday evolyutsion tarzda paydo bo'lishi va rivojlanishi L.I. Mechnikovning daryo (sug'orma dehqonchilik) sivilizatsiyasi yoki madaniyati konsepsiyasiga muvoffiq yuz bergan. SHu nuqtai nazardan SHarq tarixi, madaniyatini qishloq va shaharlarning ajralmas birligi deb ta'riflashgan. Boshqa hududlarda esa, qishloqlarning vujudga kelishi makon va zamon jihatidan farq qilib, o'zgacha amalga oshgan.

Bizning sharoitimizda qishloqlar "qishlov" ma'nosini anglatsa ajab emas. CHunki, yaqin o'tmishda ham qishloqlarga qaytishgan (Rossiyaning dasht mintaqalarida dehqonchilikrivojlangan hududlarda ham qishloqlar "selo", "stanitsa", ya'ni turg'un aholi punktlari ma'nosini bildiradi).

Qishloq va shaharlar o'ziga hos "geojuftlik" bo'lib, birining rivojlanishi ikkinchisiga bog'liq. Qolaversa, qishloq borki, shahar bor, shahar borki qishloq bor. Demak, ularni bugunki kunda bir-birisiz tasavvur qilib bo'lmaydi va aholi

ijtimoiy hayotini bunday hayotiy bunday hududiy tashkil etish shakllari doimiydir. Qishloqlar qishloqning asl mohiyati, qishloq hayot tarzi va sharoitini to'liq his qilishi uchun, biroz bo'lsada, shaharda yashab ko'rishi kerak. Binobari, shaharga doimiy yashash uchun ko'chib kelgan qishloqlik butun umr davomida shaharcha hayot tarziga moslashib (adaptatsiya qilib) boradi. Ayni paytda shahar qadri va mohiyatini, vaqtincha bo'lsada, qishloda yashab ko'rgan shaharlik ko'proq biladi va to'g'ri baholaydi. Xullas, qishloq ham, shahar ham go'zal. Biroq, ularning har biri o'zgacha chiroyga ega, agar qishloq joylar ko'proq tabiati bilan dilkash bo'lsa, shaharlar hashamatli binolariyu, zamonaviy hiyobonlari bilan go'zal.

Qishloq joylar yoki qishloqlar asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholining hududiy tashkil etish shakli ekan, u mohiyatan geografiya, hususan iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning muhim tadqiqot ob'yekti hisoblanadi. Ammo e'tirof etish zarurki, qishloqlar bu fan doirasida "omadi kelmagan" yo'nalish bo'lib, ular shaharlarga qaraganda juda oz o'rganilgan. Xatto, bunday holat milliy iqtisodiyotni qishloq xo'jaligi bilan bog'liq, aholining deyarli yarmi qishloqlarda yashovchi O'zbekiston Respublikasiga ham taaluqlidir. Buning sababi bir nechta bo'lishi mumkin. Jumladan, shaharlarning jamiyat hayotida yetakchi o'rin tutishi, yaqin o'tmishda qishloqlarga ikkinchi darajali munosabat, qishloqlarni asta-sekin shaharlarga aylantirish siyosati, qishloqlarning ko'p sonliligi va ular bo'yicha statistik ma'lumotlarning kamligi kabilar qishloq geografiyasiga nisbatan e'tiborsizlikni keltirib chiqargan.

Qishloq joylar qator funksiyalarni (vazifalarni) bajaradi. Masalan, ularning iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, ekologik va boshqa funksiyalari mavjud. O'z navbatida qishloq xo'jaligi yoki iqtisodiyoti ham turlicha. Odatda, qishloq xo'jaligi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi tarmoq sifatida qarashadi. Aslida esa u ham ancha murakkab tizim bo'lib, bevosita "tor" ma'nodagi qishloq xo'jaligidan tashqari qator sahalarini qamrab oladi. SHu nuqtai nazardan qishloq xo'jaligini jahon xo'jaligi, xalq (milliy) xo'jaligi, shahar xo'jaligi kabi umuman xo'jalikning (iqtisodiyotning) hududiy tashkil etilishini alohida takksanomik birligi yoki bo'g'ini sifatida keng ma'noda tashkil qilish ham zarur.

Qishloq joylarni geografik o`rganishda ularga o`ziga hos agrolandshaft, hududiy majmua yoki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim ko`rinishida metadalogik yondashuv maqsadga muvofiq hisoblanadi. SHundan kelib chiqqan holda qishloq joylarni o`rganishda kompleks va sistemali yondashuv, hududiylik, tarixiylik (ba`zi olimlar uni davriylik deb atashadi) tamoyillar qo`llaniladi. Ular statistik, tarixiy va geografik taqqoslash, kartografik, tizim-tarkib, guruhlash, rayonlashtirish va boshqa metodlar asosida amalga ashiriladi.

Qishloq joylarni o`rganishda ular joylashgan hududning tabiiy geografik sharoitiga alohida e`tibor bermoq lozim. Xususan, joining iqlim sharoiti, relyefi, suv va tuproq resurslari, o`simlik dunyosi kabilar muhim ahamiyatga ega. O`zbekistonda aksariyat qishloqlar gidrologik shahobchalar bo`yicha yoki ularning quyi qismida tarixan shakllangan. Soylar, daryolar, suv omborlari va irrigatsiya kanallari qishloqlar geografiyasini ko`p jihatdan belgilab beradi. Soylar yoymasi va ulardan tarqalgan kanallar (ariqlar), ko`p qo`l mehnati ta`lab qiluvchi sug`orma dehqonchilikning rivojlanishi asosida yirik qishloqlar vujudaga kelgan. Bunga Farg`ona vodiysi soylari, ayniqsa, So`x va Isfara daryolari quyi qismida tashkil topgan qishloqlar misol bo`la oladi.

Qishloqlar ko`pincha tepaliklarda, tog`etaklarida joylashgan. Bunday mikro geografik o`rin strategik jihatdan hamda yer osti suvlari sathining ko`tarilishi natijasida zahlashning oldini olish uchun ham qulaydir.

Tabiiy geografik omil qishloqlarning cho`l, voha va vodiy, tog` va tog` oldi hududlarida joylanishi, uy-joy qurilish shakli ulrning mintaqaviy xususiyatlarini tavsiflab beradi. SHuningdek, turli tabiiy ofatlar ehtimoli mavjud bo`lgan (surilma, o`pirilish, sel kelish holatlari, zilzila, kuchli shamol va boshqalar) hududlarda o`rmashgan qishloqlar qulay geografik o`ringa ega emas.

SHunday qilib qishloqlar, shaharlarga nisbatan tabiiy sharoit bilan chambarchas bog`liq bo`ladi. Modomiki, qishloq xo`jaligi bevosita tabiiy geografik sharoit ta`sirida rivojlanar ekan, uning qishloqlar geografiyasiga ta`siri ham hech qanday shubha qoldirmaydi. Qolayversa, mahalliy qurilish materiallari qum, shagal, ohak, tosh va boshqalar ham qishloqlar qiyofasining shakllanishida

muhim ro'l o'ynaydi. Soy va boshqa gidrologik shahobchalar, tor tog' vodiylarida joylashgan qishloqlar uylari terrasimon, aholi manzilgohlari esa cho'zinchoq, tasmasimon hududiy shaklga ega bo'ladi. Soylarning suv miqdori va oqim rejimi, vodiyning tor yoki kengligi, dehqonchilik yaroqli yerlarning mavjudligi ham bu joylarning demografik sig'imiga, qishloqlarning katta-kichikligi va bajaradigan vazifalariga ta'sir ko'rsatadi. Odatda, yer tanqis bo'lgan maydonlardagi qishloqlar "Zarkent", "Zarhok", "Zarmitan" deb ataladi, ya'ni ekin ekish uchun qulay kichik yer zarga, oltinga tenglashtiriladi.

Qishloqlar shakllanishi va rivojlanishining asosini iqtisodiyot tarmoqlari tashkil qiladi. Bu jihatdan qishloqlar uch toifaga bo'linadi: qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashmagan va aralash qishloqlar. O'z navbatida, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan qishloqlar bog'dorchilik va uzumchilik, sug'orma dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanadigan qishloqlardan tashkil topadi. Bu qishloq xo'jalik tarmoqlarining "qishloq hosil qilish" qobiliyati ham har xil. Nisbatan katta qishloqlar sug'orma dehqonchilik rivojlangan rayonlarda vujudga keladi, chorvachilik bilan shug'ullangan aholining yashash manzillari uncha katta bo'lmaydi.

Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashmagan qishloqlar temir yo'l bekatlari, meteorologik stansiya, rekratsiya va turistik sohalar, qazilma boyliklar, suv omborlari va kanallar orqali shakllangan. Bu qishloqlarning aholisi ham uncha ko'p bo'lmaydi. Ishlab chiqarish salohiyati katta bo'lmasligi sababli bunday qishloqlarning aksariyati shahar yoki shaharcha maqomiga ega emas.

Aralash tipdagi qishloqlar yuqoridagi ikki sohalarning rivojlanishi yoki, odatda, qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq sanoat korxonalar negizida vujudga kelgan. Bunday qishloqlarning demografik salohiyati nisbatan katta bo'lishi mumkin. Demak qishloqlarning katta kichikligini ularning bajaradigan funksiyasi belgilab beradi. Bu aholi punktlari geografiyasi eng muhim qonuniyatlaridan biridir.

Sobiq Ittifoq davrida qishloqlar shaharlashuv (urbanizatsiya)nuqtayi nazaridan ikkiga, ya'ni istiqbolli va istiqbolsiz qishloqlarga ajratilib, go'yoki

ularning taqdiri oldindan aytilib berilar edi. Aslida esa, har qanday qishloq, u katta yoki kichik bo`lmasin mavjud ekan, uning albatta iqtisodiy (hayotiy) zamini bor; chunki, bunday moddiy asosga ega bo`lmagan qishloq asta-sekin o`z-o`zidan yo`qolib ketadi.

Qishloqlarning katta-kichikligi ularning funksiyasiga bog`liq bo`lishi bilan birga bunday aholi manzilgihlarida aholiga hizmat ko`rsatish va servis sohasini rivojlantirish sharoiti turlicha bo`ladi. Qishloq aholi punktlari zich joylashgan hududlarda o`ziga xos “qishloq aglomeratsiyasi” shakllanib, ular doirasida ham mayatniksimon migratsiya kuzatiladi.

Aholiga hizmat ko`rsatish sohalari, masalan, ta`lim, sog`liqni saqlash tizimi qishloq joylarda pog`onasimon, ierarxiyali tashkil etiladi. Bu V. Kristallarning “markaziy o`rinlar” g`oyasiga binoan, mayday qishloqlarda ta`lim yoki sog`liqni saqlash tizimlarining eng quyi bosqichi joylashadi, qishloqlar kattalashib brogan sari ularda tashkil etilgan bu sohalarga tegishli ob`yektlar ham kattalashib boradi. Masalan, eng katta qishloqlarning ba`zilarida kollej yoki akademik litsey, yirik kutubxona, kasalxona, ixtisoslashgan savdo do`koni, bank, supermarketlar tashkil etiladi.

Qishloqlar dam olish maskanlari (rekratsiya) va turizmni rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. So`lim va soya-salqin, go`zal manzarali joylar respublikamizda ko`plab topiladi. Xususan, soy va buloqlar bo`yidagi qishloqlarda turli oromgox va sixatgohlar tashkil etilgan. Ayni vaqtda qishloq joylarda mahalliy, diniy, agroturiz va ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari ham katta. Turli xil qadamjolar, baliqmozor yoki chinorlar, g`or va shar-sharalar, ajoyib tog` va voha landshaftlari, milliy xalq o`yinlari, marosim va to`ylari, taomlari va liboslari ham muhim turistik ahamiyatga ega. Jumladan, agroturizm mahalliy va mintaqaviy iqtisodiyotning “qadam-baqadam” rivojlanishida asosiy ro`l o`ynaydi. SHuningdek, turli xil arxiologik yopilmalar, qo`rg`on va tepalar, qadimgi irrigatsiya inshootlari ilmiy va xalqaro turizmni hududiy tashkil etishda omil bo`lib xizmat qiladi. Masalan, bunday yodgorliklar Quyi Amdaryo va Surxon vodiysida

ko`p. Qishloq joylarni geografik o`rganishda ularning ana shu jihatlariga ham e`tibor bermoq zarur.

Qishloq joylar geografiyasini tadqiq qilishda markaziy o`rinni, albatta aholi egallaydi. Chunki, qishloq, eng avvalo, aholi yashaydigan joy, manzil hisoblanadi. Aholi esa o`z-o`zini takror barpo qilish xususiyatiga ega bo`lishi barobarida u moddiy va ma`naviy boyliklarning yaratuvchisi va ayni vaqtda bu boyliklarning istemolchisi hamdir.

Qishloq joylar aholisini geografik o`rganishda ikki xil yondashuv mavjud. Birinchisi bu joylar aholisini “yoppasiga”, ya`ni qishloq tumanlar, viloyat yoki respublika qishloq aholisining joylashuvi, zichligi kabi umumiy xususiyatlarini tahlil qilish bo`lsa, ikkinchi yo`nalish qishloq aholisini qishloq aholi punktlari darajasida tadqiq etishdan iboratdir. Ammo bu ikki yo`nalish, tizim-tarkib tamoyiliga o`xshash, bir-biridan keskin farq qilmaydi, ularni o`zaro muvoffiqlashtirgan holda o`rganish yaxshi natijalar beradi, binobarin, bu ikki yo`nalish bir-birini to`ldiradi va tadqiqot chuqurligi, mukammalligini ta`minlaydi.

Qishloq aholi punktlari o`rganilganda ular, eng avvalo, klassifikatsiyalashtiriladi. Bu jihatdan qishloqlar uch asosiy sinfga bo`linadi: kichik qishloqlar (aholi soni 1000 kishigacha), o`rta (1000-3000 kishi) va katta (3000 kishi va undan ortiq) qishloqlar.

Maxsus tadqiqotlarda bu guruhlashtirish yanada aniqroq darajada bajariladi. Bunda, masalan, qishloqlarning katta-kichikligi bo`yicha quyidagi sinflarga ajratish mumkin:

- Mayda qishloqlar aholi soni 500 kishigacha;
- Kichik qishloqlar 500-1000 kishi;
- O`rta qishloqlar 1000-3000 kishi;
- Katta qishoqlar 3000-5000 kishi;
- Yirik qishloqlar 5000 kishidan ziyod.

Qishloq aholi punktlarining yuqoridagi guruhlarga ajratilishi tasodifiy emas, albatta. Turli bosqichdagi qishloqlar xo`jaligining ixtisoslashuvi va

mujassamlashuvi, ularda ta'lim, savdo, sog'liqni saqlash, moliya tizimiga tegishli muassasalar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma shahobchalari har xil bo'ladi.

Qishloqlarning katta-kichikligi, avval ta'kidlanganidek, ularning qaysi sohaga ixtisoslashuviga bog'liq. O'z novbatida, qishloqlarda aholi sonining ko'p yoki kamligi xizmat ko'rsatish va servis sohasini joylashtirishga ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq aholi punktlarini o'rganish ularni kartalashtirish va rayonlashtirishni taqozo etadi. Rel'yefi murakkab bo'lgan hududlarda qishloqlarni balandlik mintaqalari bo'yicha o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, ularni daryo havzalari, cho'l, voha va vodi, shahar atrofi darajasida tadqiq qilish ham katta geografik ma'noga ega.

Geografik tahlil qishloqlar va qishloqlar aholisi zichligi, qishloqlar o'rtasidagi o'rtacha masofa va boshqa ko'rsatkichlarvni aniqlashni ham ta'lab qiladi. SHu o'rinda ta'kidlash joizki, qishloq tumanlari miqyosida aholi zichligini hisoblash katta aniqlikka ega emas. Bu "brutto" ko'rsatkich ma'muriy tumanning barcha hududlariga taalluqli (aholi yashash yoki yashamasligidan qat'iy nazar, cho'l yoki tog` hududlarini ham qamrab oladi). Binobarin, aholi zichligini qishloq fuqoralar yig'inlari darajasida aniqlash yaxshi natijalar beradi. Bunda zichlik, ayniqsa, qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarga nisbatan hisoblansa, yanada chuqurroq va to'g'riroq bo'ladi.

Qishloq aholi punktlarini geografik o'rganish katta-kichikligiga ko'ra guruhlashdan tashqari ularni bajaradigan vazifasiga (funktsiyasi) bo'yicha alohida tiplarga ajratishni nazarda tutadi. Qishloqlarning uch asosiy funksiyasiga bo'linishi haqida avvaliroq aytilgan edi. SHu bilan birga qishloqlarni oddiy va qishloq fuqarolari yig'inlari, ba'zan qishloq tumanlari markazi vazifasini bajaruvchi guruhlarga ajratish ham mumkin. Ularni rayonlashtirish esa tabiiy-xo'jalik rayonlari doirasida amalga pshiriladi. CHunki, tabiiy sharoit, agroiqlimiy resurslik (namlik, harorat, tuproq) qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashuvi va ixtisoslashuviga ta'sir ko'rsatadi, ular esa, o'z novbatida, qishloqlar geografiyasini, katta-kichikligi va funksional tiplarini belgilab beradi. Bunda shahar atrofi xamda yrbanizatsiyalashgan hududlarni alohida ajratish zarur.

Qishloq aholi punktlarini genetik jihatdan o`rganish, xususan qadimdan va yangi o`zlashtirilgan hududlarda ularni vujudga kelish omillari va xususiyatlarini aniqlash ahamiyatdan holi emas. SHuningdek, qishloqlarni uy-joy qurilishi, obodonlashtirilganligi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma bilan ta`minlanganligi, tashqi qiyofasi (konfiguratsiyasi) kabi jihatlarini ham tadqiq qilish katta geografik mazmun kasb etadi.

Qishloq joylar demografiyasi tahlili ham bu boradagi geografik bilimlarga to`ldiradi. U ayni vaqtda qishloqlar aholisi geografiyasini o`rganish bilan bog`liq.

Agar asosiy maqsad qishloq joylar demografik jarayonlarini hududiy jihatdan tadqiq etish bo`lsa, bunday yondashuv demogeografik tavsifga ega bo`ladi va, aksincha, birinchi o`ringa hududlar (viloyatlar, qishloq tumanlari, qishloq fuqarolar yig`ini va qishloqlar) ob`yekt sifatida qo`yilsa, ularning ustuvorlik darajasi yuqori bo`lsa, u holda geodemografik yondashuv nazarda tutiladi.

Biroq ta`kidlash joizki, mintaqaviy demografiya va demografik vaziyatga bunday hududiy yondashuvlar orasida katta farq yo`q; farq faqat qaysinisi tadqiqot ob`yekti darajasida qabul qilinishida. Umuman olganda, har qanday hodisa yoki voqelik albatta qayerdadir, qaysi bir makonda sodir bo`ladi. SHu nuqayi nazardan hududiylik tamoyili bu yerda umummetadologik xususiyatga ega. Haqiqiy geografik tadqiqot esa bu hududga alohida tizim sifatida yondashadi (hududiy iqtisodiy tizim, hududiy ijtimoiy tizim, hududiy siyosiy tizim va boshqalar) va uni ichki tahlili tizim-tarkib doirasida amalgam oshiriladi. Har qanday hududiy yoki tarmoqlar tarkibi ham, o`z novbatida, ichkaridan (pastdan, quyidan) qaraganda, tizim, "tizimcha" ko`rinishida gavdalanadi.

SHunday qilib, qishloq joylar demografiyasida quyidagilar tahlil qilinishi kerak:

- aholi soni, uning o`sishi va joylanishi;
- aholining takror barpo etilishi (tug`lish, o`lim, tabiiy, ko`payish);
- aholi tabiiy va mexanik harakatining demografik vaziyatga ta`siri;
- aholining yosh-jins tarkibi;
- aholining milliy tarkibi;

- mehnat resursi shakllanishining demografik asoslari va boshqalar.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar tadrijiy jihatdan, ya'ni ularning dinamikasi tahlil qilinib, tegishli qonuniyat yoki xususiyatlar aniqlanishi kerak. SHu bilan birga geografik tadqiqot bu jarayonlarning hududiy farqlari, tofovutlari va ularning sabablari ochib berishini taqozo etadi. Bunda geografik taqqoslash, guruhlash, geodemografik to'lqinlarini belgilash kabi usullar qo'llaniladi.

Qishloq joylar geografiyasini o'rganishda ijtimoiy masalalar muhim o'rin tutadi va ular ham demografik jarayonlar kabi aholi geografiyasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Bunda qishloq aholisining yashash sharoiti va tarsi, ijtimoiy infratuzilma, geokrimenogen, nozogeografik va geoeokologik holatlartahlil qilinadi.

Qishloq aholisi tabiatga "yaqin", shahar joylarda esa tabiiy sharoit kuchki deformatsiyalashga, o'zgargan; bu yerda o'ta zich joylashgan va o'ziga xos hayot tarziga ega bo'lgan aholi, ayniqsa, u avval qishloqda yashagan bo'lsa, hududiy tanglik va tanqislik mavjudligi sababli, bo'sliqqa, yakkalikga intiladi, uning tabiati ham o'ziga xos. Odatda, qishloq aholisida qarindosh urug', qo'shnichilik munosabatlari ko'proq rivojlangan bo'ladi.

Qishloq joylar va qishloqliklar shaharliklarga qaraganda yangiliklarni sekinroq qabul qiladi. SHahar joylarda esa mavjud holat tez-tez o'zgarib, yangilanib boradi. Demak, shu o'rinda, geografik ma'noda shahar joylarni Yer yuzining quruqlik qismiga, qishloqlarni dengiz-okeanlarga qiyoslash mumkin.

SHaharlarning o'ta harakatchanligi ulrning hududlarni urbanizatsiyalashtirish xususiyatlarinki keltirib chiqaradi. Ammo shahar joylarga nisbatan urbanizatsiya tushunchasini qo'llash nodurust, chunki, qishloqning o'zi urbanizatsiyalashgan hudud hisoblanadi. Binobarin, urbanizatsiya shaharlarning atrof-muhit ijtimoiy- iqtisodiy "shaharchasiga" yashash, ishlash tarzining tarqalishi bo'lib, bu jarayon, eng avvalo, qishloq joylarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bo'g'liq.

Hozirgi vaqtda respublikamizda, hususan qishloq joylar infratuzilmasini yaxshilashga katta e'tabor qaratilmoqda. Bu borada ta'lim va sog'liqni saqlash

tizimini to`g`ri hududiy tashkil etish va rivojlantirish, qishloq aholisini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta`minlash kabilar geografik jihatdan o`rganilishi lozim.

SHuningdek, chakana savdo va pullik xizmat qishloq tumanlari va qishloq fuqarolar yig`ini (QFY) darajasida tadqiq qilinishi lozim. Bunda mutloq ko`rsatkichlar bilan kifoyalanish to`liq xulosalar bera olmaydi. SHu bois, bu borada nisbiy ko`rsatkichlardan, masalan, aholi jon boshiga qancha savdo yoki pullik xizmat bajarilishi to`g`risidagi ma`lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Sog`liqni saqlash tizimida ham qishloq vrachlik punktlari (QVP), ularning zichligi, qancha aholiga xizmat ko`rsatish, ta`sir doirasi- radiusi kabi hududiy xususiyatlari o`rganiladi. SHu bilan birga qishloq aholisi ning salomatligi, kasallanish darajasi, kasallik turlari ularning sabablari, umumiy nozogeografik vaziyat, nozogeografik o`choq areallarini aniqlash qishloq joylarni ijtimoiy geografik nuqtayi nazaridan o`rganishda katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy geografik holat ko`p jihatdan joylarning ekologik xususiyatiga bog`liq. Geoekologik vaziyat esa aholi salomatligiga ta`sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi. SHu nuqtayi nazardan ichimlik suvi uning fizik -kimyoviy tarkibi, sifati, atmosfera havosi, shamol, ovqatlanish rejimi va ratsioni, joylarning sanitary-gigiyenik holatlari ham tahlil va tadqiq qilinadi.

Qishloq hududlari ekalogiyasi turli ichki va tashqi omillar ta`sirida shakllanadi. Ichki omil asosan, qishloq xo`jaligiga har xil ximikatlar, gerbitsit va pestisitlardan, tuproq erroziyasi va sho`rlanishi, chiqindilar, chorva fermalari, tovuq fabrikalari va boshqa mahalliy xususiyatlar bilan bog`liq. Tashqi omil esa chetdan keluvchi iflos havo, suv, transchegaraviy holatlar negizida yuzaga keladi.

Qishloq, oddatda, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda shaharga nisbatan passiv, zaifiroq aholi punkti hisoblanadi. SHaharlarning ko`p funksiyaligi, kattaligi, innovatsiya, investitsiya va infratuzilma salohiyatining kuchliligi, iqtisodiyotning ko`p tarmoqliligi va yuqori darajada rivojlanganligi, aholi yashashi, o`qishi, davolanishi, ishlash uchun imkoniyatlarining keng ekanligi, ularning ta`sirchanligi

hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim yoki majmualarda yetakchi ro`l o`ynashini ta`minlab beradi.

Qishloq shaharga ma`lum darajada bo`ysunadi, uni qishloq xo`jaligi xom ashyosi bilan, aholisini toza havo, suv, iqtisodiyotini ichki kuch bilan ta`minlab turadi. SHahar esa qishloqqa malakali kadrlar, qishloq xo`jaligiga mashina, asbob-uskunalar, mineral o`g`itlar, qurilish materiallari, zamonaviy servis hizmatini yetkazib beradi.

Biroq, shu bilan birga, shahar ayrim ob`yekt yoki sohalarni chetga, qishloq joylarga chiqaradi. Masalan, yirik shaharlar atrofida mol bozorlari, chiqindihonalar, qabristonlar, omborxonalar, yonilg`i terminallari , transformator podstansiyalari, avtobazalar joylashgan. Ularning ko`pchiligi qishloq landshaftini buzadi,ekalogik vaziyatiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Binobarn, qishloq joylar geografiyasini o`rganishda ana shunday “shahar-qishloq” musosabatlarining hududiy jihatlariga ham ahamiyat bermoq zarur.

Qishloq joylar geografik xususiyatlarini qishloq aholi punktlari nomlari ham ifodalab beradi. SHu o`rinda toponimika, ya`ni joy nomlari, qishloqlarning tarixi, etnografiyasi, xo`jaligi kabi jihatlarini aks ettirishini e`tiborini chetda qoldirmaslik kerak. Bu maqsadda mamlakatimiz olmlari H.Hasnov, S.Qorayev, P.G`ulomov, T.Nafasov, S.Tursunov, N.Ohunov, M.Mirakmalov, YU.Ahmadaliyev va boshqalarning asarlaridan foydalanish katta samara beradi.

SHunday qilib, qishloq joylarni geografik o`rganish keng qamrovli, kompleks yo`nalishda olib boriladi. Bunday tadqiqotlar qishloqlar iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularning ilmiy asosda yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1.3. Qishloq joylar geografiyasini o`rganish va aholini hududiy tashkil etish

Yer shari bo`ylab aholining joylanishi ma`lum bir o`lcham va tipdagi xilma-xil shakllarga ega aholi punktlarining tizimi hamda turini vujudga keltiradi. Demak, odamlarning doimiy yoki vaqtincha to`planadigan, mujassamlashadigan

(konsentratsiya) joyi - aholi punktlari deb nomlanadi. Bu aholi punktlari odamlarning yashash joyi, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqaradigan va iste'mol qildigan markazlari, avlodlarning takror barpo bo'ladigan ijtimoiy hayot o'chog'i hisoblanadi.

Aholi joylashishining hududiy ko'rinishi, ya'ni shakli aholi punktlaridir. S.A. Kavalyov aholi va aholi punktlarini – inson tomonidan yaratilgan odamlar hayoti uchun zarur bo'lgan moddiy shart -sharoitlarga ega ma'lum bir hududda yashovchi aholining joylanishi, deb ta'riflaydi.

Aholi va aholi punktlarining joylanishida aniqlangan hududdagi aholi punktlari yig'indisi ularning bir-biri bilan aloqasi orqali to'rini tashkil etishini ham anglatadi. Mamlakat xo'jaligi va xalqlarning yashash sharoiti uchun aholi punktlari to'rining kengayishi, rivojlanishi va joylnishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, aholi va xo'jalikni geografik nuqtai-nazardan baholashda barcha aholi yashash punktlari tiplarini o'rganish zarurdir.

Aholini geografik o'rganishda ikki yo'nalish mavjud. Birinchidan, demografik yo'nalish ya'ni aholining o'sishi, yosh va jinsi, milliy tarkibi, takror barpo bo'lishiga ko'proq e'tibor berilsa, ikkinchisida yuqoridagi geografik jarayonlarning natijasi bo'lmish aholi punktlari, ularning to'ri alohida tadqiq etiladi (Soliyev, Qarshiboyeva, 1999).

Jamiyat hayotining asosini moddiy boyliklar ishlab chiqarish tashkil etadi. Har qanday ishlab chiqarish faoliyati biron-bir aholi manzilgohining vujudga kelishiga, rivojlanishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Murunyo'v oltin konining topilishi natijasida Zarafshon, Uchquduq shaharlarivujudga keldi yoki Qarshi va Mirzacho'l hududida yangi yerlarning o'zlashtirilishi qator aholi punktlarining barpo bo'lishiga sabab bo'ldi. Xilma-xil ishlab chiqarish faoliyati aholi va aholi punktlari o'lchami va shakliga turlicha ta'sir etadi. Jumladan, Muruntov oltin konining topilishi shu hududda aholining mujassamlashuviga (konsentratsiya) ga olib keldi. O'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning boshqa turlari rivojlanishiga ham turtki bo'ladi.

Turli yiriklikdagi aholi punktlari, ularning yirik murakkab tizimlari aholining hududiy tashkil etish shakllaridir. Uning ijtimoiy tashkil etish shakllariga har-xil yosh va jins, millat, elat, kasb- hunarga mansub kishilar uyushmasi kiradi, ularga makomni jihatdan umumiylik shart emas. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholi punktlari muhim o`rin egallaydi. U xalq xo`jaligining hududiy tizimida tabiiy resurslar, ijtimoiy ishlab chiqarish va infratuzilma tarmoqlarini bir-biri bilan bog`lovchi ko`prik vazifasini bajaradi.

Yer sharidagi har bir alohida hudud aholi va aholi punktlari tarixiy, tabiiy shart-sharoit va etnografik jihatlaridan kelib chiqib xilma-xil o`ziga xos ko`rinishlarga ega. Jumladan, tabiiy shart-sharoit aholi punktlari joylashuviga ham bevosita, ham bilvosita ta`sir etadi. Qachonki, aholi punktlari uchun joy tanlanayotganda bevosita tabiiy sharoit bilan (rel`ef, suv bo`yi, shamol yo`li, seysmik, eroziya va boshqalar) bilan hisoblashmaslikning iloji yo`q. Agarda aholi punktlari ishlab chiqarish nuqtayi nazardan vujudga kelsa, tabiiy sharoit bilvosita ta`sir ko`rsatadi.

Har qanday aholi punktlarini geografik jihatdan majmualiy tadqiq etishda avvalo unda yashovchilarning soni va tarkibi, bandligi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tutgan mavqeyi (madaniy, iqtisodiy va siyosiy) boshqa aholi punktlari bilan aloqasini mukammal bilish ta`lab etiladi va o`z novbatida yuqorida keltirilgan tarixiy, tabiiy etnografik tomonlarini ham hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholi punktlari rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillardan yana biri bu ijtimoiy-iqtisodiy omillardir. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar tufayli vujudga kelgan aholi punktlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yuksalgan sayin rivojlanib borayveradi. Masalan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi undagi mavjud turli hil aholi punktlarining ham eniga, ham bo`yiga o`sishiga olib keladi. Bir vaqtlar Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlari respublika viloyatlari tarkibida umuman bo`lmagan bo`lsa, keyinchalik, yuqorida sanab o`tilayotgan omillar tufayli kichik-kichik qishloqlar o`rnida yoki umuman aholi yashamaydigan joylarda yangidan-

yangi aholi punktlari barpo qilindi va ular bugungi kunda bir necha aholi punktlarini o`zida mujassamlashtirgan yirik viloyatlarga aylandi.

Aholi va aholi punktlarining joylanishi shakllari xilma-xil bo`lganligi bois ularni yirik ikkita tipga ajratishadi, tarqoq (dispers) va guruhlangan shakllari.

Tarqoq joylashgan aholi punktlari- yakka holda qurilgan yashash joyi bo`lib, ular ko`proq xizmat yuzasidan (fermerlar) tashkil qilinib, bir-biridan ma`lum bir masofadagi uzoqlikda joylashadi.

Guruhlangan holda joylashgan aholi punktlari- turli hil kattalikdagi shahar va qishloq aholi punktlari ko`rinishda bo`ladi. SHu boisdan ham bunday guruh ko`rinishidagi aholi punktlari ikkita-shahar va qishloq aholi punktlariga bo`linadi. “Qishloq, odatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda shaharga nisbatan passiv, zaifiroq aholi punkti hisoblanadi. SHaharlarning ko`p funksiyaligi, kattaligi, inovasiya, investisiya va infratuzilma salohiyatining kichikligi, iqtisodiyotning ko`p tarmoqliligi va yuqori darajada rivojlanganligi, aholi yashashi, o`qishi, davolanishi, ishlashi uchun imkoniyatlarning keng ekanligi, ularning ta`sirchanligi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim yoki majmualarda yetakchi ro`l o`ynashini ta`minlab beradi.

Qishloq shaharga ma`lum darajada bo`ysunadi, uni qishloq xo`jaligi xom ashyosi bilan, aholisini toza havo, suv, iqtisodiyotini ishchi kuchi bilan ta`minlab turadi. SHahar esa qishloqqa malakali kadrlar, qishloq xo`jaligiga mashina, asbob-uskunalar, mineral o`g`itlar, qurilish materiallari, zamonaviy servis hizmatini yetkazib beradi”.

SHahar va qishloq aholi punktlari bir-biri bilan chambarchas bog`liq bo`lib, ular o`rtasida aniq chegara o`tkazib bo`lmaydi. Sababi, shahar-qishloq oralig`da ham qator aholi punktlari mavjudki, ular biri ikkinchisi bilan tutashib ketgan. Ammo, shunga qaramasdan, shahar va qishloqni bir-biridan ajratuvchi maxsus mezonlar ham borki, bu mezonlar turli davrlarda o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`ladi.

Yer shari bo`ylab aholining joylanishi ma`lum bir o`lcham va tipdagi xilma-xil shakllarga ega aholi punktlarining tizimi hamda turini vujudga keltiradi.

Demak, odamlarning doimiy yoki vaqtincha to`planadigan, mujassamlashadigan (konsentratsiya) joyi - aholi punktlari deb nomlanadi. Bu aholi punktlari odamlarning yashash joyi, moddiy va ma`naviy boyliklarni ishlab chiqaradigan va iste`mol qildigan markazlari, avlodlarning takror barpo bo`ladigan ijtimoiy hayot o`chog`i hisoblanadi.

Aholi joylashishining hududiy ko`rinishi, ya`ni shakli aholi punktlaridir. S.A. Kavalyov aholi va aholi punktlarini – inson tomonidan yaratilgan odamlar hayoti uchun zarur bo`lgan moddiy shart -sharoitlarga ega ma`lum bir hududda yashovchi aholining joylanishi, deb ta`riflaydi.

Aholi va aholi punktlarining joylanishida aniqlangan hududdagi aholi punktlari yig`indisi ularning bir-biri bilan aloqasi orqali to`rini tashkil etishini ham anglatadi. Mamlakat xo`jaligi va xalqlarning yashash sharoiti uchun aholi punktlari to`rining kengayishi, rivojlanishi va joylnishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, aholi va xo`jalikni geografik nuqtai-nazardan baholashda barcha aholi yashash punktlari tiplarini o`rganish zarurdir.

Aholini geografik o`rganishda ikki yo`nalish mavjud. Birinchidan, demografik yo`nalish ya`ni aholining o`sishi, yosh va jinsi, milliy tarkibi, takror barpo bo`lishiga ko`proq e`tibor berilsa, ikkinchisida yuqoridagi geografik jarayonlarning natijasi bo`lmish aholi punktlari, ularning to`ri alohida tadqiq etiladi (Soliyev, Qarshiboyeva, 1999).

Jamiyat hayotining asosini moddiy boyliklar ishlab chiqarish tashkil etadi. Har qanday ishlab chiqarish faoliyati biron-bir aholi manzilgohining vujudga kelishiga, rivojlanishiga zamin bo`lib xizmat qiladi. Masalan, Murunyo`v oltin konining topilishi natijasida Zarafshon, Uchquduq shaharlarivujudga keldi yoki Qarshi va Mirzacho`l hududida yangi yerlarning o`zlashtirilishi qator aholi punktlarining barpo bo`lishiga sabab bo`ldi. Xilma-xil ishlab chiqarish faoliyati aholi va aholi punktlari o`lchami va shakliga turlicha ta`sir etadi. Jumladan, Muruntov oltin konining topilishi shu hududda aholining mujassamlashuviga (konsentratsiya) ga olib keldi. O`z novbatida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning boshqa turlari rivojlanishiga ham turtki bo`ladi.

Turli yiriklikdagi aholi punktlari, ularning yirik murakkab tizimlari aholining hududiy tashkil etish shakllaridir. Uning ijtimoiy tashkil etish shakllariga har-xil yosh va jins, millat, elat, kasb- hunarga mansub kishilar uyushmasi kiradi, ularga makomni jihatdan umumiylik shart emas. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholi punktlari muhim o`rin egallaydi. U xalq xo`jaligining hududiy tizimida tabiiy resurslar, ijtimoiy ishlab chiqarish va infratuzilma tarmoqlarini bir-biri bilan bog`lovchi ko`prik vazifasini bajaradi.

Yer sharidagi har bir alohida hudud aholi va aholi punktlari tarixiy, tabiiy shart-sharoit va etnografik jihatlaridan kelib chiqib xilma-xil o`ziga xos ko`rinishlarga ega. Jumladan, tabiiy shart-sharoit aholi punktlari joylashuviga ham bevosita, ham bilvosita ta`sir etadi. Qachonki, aholi punktlari uchun joy tanlanayotganda bevosita tabiiy sharoit bilan (rel`ef, suv bo`yi, shamol yo`li, seysmik, eroziya va boshqalar) bilan hisoblashmaslikning iloji yo`q. Agarda aholi punktlari ishlab chiqarish nuqtayi nazardan vujudga kelsa, tabiiy sharoit bilvosita ta`sir ko`rsatadi.

Har qanday aholi punktlarini geografik jihatdan majmualiy tadqiq etishda avvalo unda yashovchilarning soni va tarkibi, bandligi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tutgan mavqeyi (madaniy, iqtisodiy va siyosiy) boshqa aholi punktlari bilan aloqasini mukammal bilish ta`lab etiladi va o`z navbatida yuqorida keltirilgan tarixiy, tabiiy etnografik tomonlarini ham hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholi punktlari rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillardan yana biri bu ijtimoiy-iqtisodiy omillardir. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar tufayli vujudga kelgan aholi punktlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yuksalgan sayin rivojlanib borayveradi. Masalan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi undagi mavjud turli hil aholi punktlarining ham eniga, ham bo`yiga o`sishiga olib keladi. Bir vaqtlar Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlari respublika viloyatlari tarkibida umuman bo`lmagan bo`lsa, keyinchalik, yuqorida sanab o`tilayotgan omillar tufayli kichik-kichik qishloqlar o`rnida yoki umuman aholi yashamaydigan joylarda yangidan-

yangi aholi punktlari barpo qilindi va ular bugungi kunda bir necha aholi punktlarini o`zida mujassamlashtirgan yirik viloyatlarga aylandi.

Aholi va aholi punktlarining joylanishi shakllari xilma-xil bo`lganligi bois ularni yirik ikkita tipga ajratishadi, tarqoq (dispers) va guruhlangan shakllari.

Tarqoq joylashgan aholi punktlari- yakka holda qurilgan yashash joyi bo`lib, ular ko`proq xizmat yuzasidan (fermerlar) tashkil qilinib, bir-biridan ma`lum bir masofadagi uzoqlikda joylashadi.

Guruhlangan holda joylashgan aholi punktlari- turli hil kattalikdagi shahar va qishloq aholi punktlari ko`rinishda bo`ladi. SHu boisdan ham bunday guruh ko`rinishidagi aholi punktlari ikkita-shahar va qishloq aholi punktlariga bo`linadi. "Qishloq, odatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda shaharga nisbatan passiv, zaifiroq aholi punkti hisoblanadi. SHaharlarning ko`p funksiyaligi, kattaligi, inovasiya, investisiya va infratuzilma salohiyatining kichikligi, iqtisodiyotning ko`p tarmoqliligi va yuqori darajada rivojlanganligi, aholi yashashi, o`qishi, davolanishi, ishlashi uchun imkoniyatlarning keng ekanligi, ularning ta`sirchanligi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim yoki majmualarda yetakchi ro`l o`ynashini ta`minlab beradi.

Qishloq shaharga ma`lum darajada bo`ysunadi, uni qishloq xo`jaligi xom ashyosi bilan, aholisini toza havo, suv, iqtisodiyotini ishchi kuchi bilan ta`minlab turadi. SHahar esa qishloqqa malakali kadrlar, qishloq xo`jaligiga mashina, asbob-uskunalar, mineral o`g`itlar, qurilish materiallari, zamonaviy servis hizmatini yetkazib beradi".

SHahar va qishloq aholi punktlari bir-biri bilan chambarchas bog`liq bo`lib, ular o`rtasida aniq chegara o`tkazib bo`lmaydi. Sababi, shahar-qishloq oralig`da ham qator aholi punktlari mavjudki, ular biri ikkinchisi bilan tutashib ketgan. Ammo, shunga qaramasdan, shahar va qishloqni bir-biridan ajratuvchi maxsus mezonlar ham borki, bu mezonlar turli davrlarda o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`ladi.

II. BOB. BULUNG`UR TUMAN QISHLOQ JOYLAR AHOLISINING DEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI

2.1. Bulung`ur tuman qishloq joylar aholisini hududiy joylashishi

Bulung`ur tumani Samarqand viloyatining sharqiy qismida joylashgan bo`lib, u shimoldan va shimoli-sharqdan Jizzax viloyati, janubi-sharqdan Tojikiston, janubdan Samarqand va Urgut tumani, g`arbdan Jomboy tumani bilan chegaradosh. Bulung`ur tumanidan Samarqand viloyatigacha bo`lgan masofa 28 km ni tashkil qiladi. Bulung`ur tumanining geografik joylashuvining qulayligi hamda iqtisodiy geografik o`rnini belgilaydigan omillardan biri uning Zarafshon vodiysining o`rta qismida, hamda tuman markazi hisoblanmish Bulung`ur shahri hududidan xalqaro ahamiyatga molik avtomobil va temir yo`llarining kesib o`tganligidir. Bulung`ur tumanining hududi Turkiston tizmasining janubi-g`arbidagi tog` oralig`i botig`ida joylashgan bo`lib yer yuzasi tekislikdan iborat. Tuman sharqida G`o`bdintog` joylashgan. Yer usti tuzilishi tog` oldi tekisliklari, adirlar, past tog`lardan iborat bo`lib ularning mutloq balandligi 800-1000 metrni tashkil qiladi.

Tuman markazi Bulung`ur shahri hisoblanib, u 1926-yil 29-sentyabrda tashkil topgan. Uning umumiy maydoni 0.76 ming kv km ni tashkil qiladi. Tumanda shaharlar soni bitta (Bulung`ur shahri), shahar tipidagi posyolkalar (shaharchalar) soni uchta (Kildon, Sohibkor, Bog`bon shaharchalari), qishloq fuqarolar yig`inlari soni 7 ta, qishloqlar esa 143 tashkil qiladi.

Bulung`ur tumanining jami aholisi 160 537 kishini tashkil qilib, shundan 29 140 tasi Bulung`ur shahriga, 2 128 tasi Kildon shaharchasiga, 2 893 tasi Sohibkor shaharchasiga, 3 423 tasi Bog`bon shaharchasiga to`g`ri keladi. Qolgan 122 953 tasi kichik qishloq aholi punktlari xissasiga to`g`ri keladi.

Bulung`ur tuman aholi punktlari va aholisining joylashuvi
(2013-yil ma`lumoti)

2-jadval

Aholi punktlari nomi	Kishi
Tuman bo`yicha	160 537
Bulung`ur shahri	29 140
Kildon shaharchasi	2 128
Sohibkor shaharchasi	2 893
Bog`bon shaharchasi	3 423

Tumanda erkaklar salmog`i 19 245 kishini, ayollar salmog`i 18 882 kisini tashkil qiladi. 122 510 tasi qishloq joylar xissasiga to`g`ri kelib, shundan erkaklar salmog`i 62 195 kishini, ayollar salmog`i esa 60 315 kishini tashkil qiladi.


Umumiy aholining 38.1 ming kishi (24 foizi) shaharlarda, qolgan 122.4 ming kishi 76 foizi qishloqlarda istiqomat qiladi. Tuman aholisining asosiy qismini ya`ni 95 foizini o`zbeklar tashkil etadi. Umuman tumanda 24 millat vakillari yashaydi. Ular rus, tojik, ukrain, tatar, turk, koreys, qirim totarlari va boshqa millat vakillaridan iborat.

Tuman aholisi tabiiy ko`payish hisobiga ko`paymoqda (3.6%). Tumanda aholining mehanik harakati -0.2 ga teng, ya`ni tumanga tashqaridan keluvchilardan ko`ra, chetga chiquvchilar soni ko`p.

Obikor dehqonchilik asosan qo`l mehnatiga tayanganligi sababli sug`oriladigan hududlarda aholi zich joylashgan, tog` va tog` oldi hududlarida lalmi dehqonchilik hamda chorvachilik bilan shug`ullanadigan hududlarda aholi siyrak joylashgan. Tuman aholisining o`rtacha zichligi 1 kv. km.ga 157 kishini tashkil qiladi.

Tabiiy ko`payishning yuqoriligi ya`ni aholi sonida yoshlar sonining kattaligini bildiradi va bu o`z novbatida mehnat resurslarini tashkil qiladi. Aholining mehnatga yaroqli bo`lgan qismi mehnat resurslari hisoblanadi. Bulung`ur tumanida mehnatga layoqatli yoshdagi kishilarning umumiy soni 77.9 ming (48.5%) bo`lib, ularning 56.8 ming nafari iqtisodiy faol aholi hisoblanadi.

**Ma`muriy-hududiy bo`linishi va tumandagi aholi punktlari bo`yicha 2012-yil
1-yanvar holatida doimiy aholi soni**




Bulung`ur tumanida mehnat resurslari quyidagicha taqsimlangan (2012 yil ma`lumotiga ko`ra):

- mehnat resurslari soni 77.9 ming kishi;
- mehnatga layoqatli yoshdagi aholining soni 77.5 ming kishi;
- o`rtacha band aholi soni 54.5 ming kishi;
- kichik tadbirkorlik sub`yektlarida band aholi soni 48.3 ming kishi;
- shahar joylardagi kichik korxonalarida band aholi soni 1.1 ming kishi;
- mikrofirmalarda band aholi soni 11.6 ming kishi;
- jami iqtisodiyotda band aholi sonidan kichik tadbirkorlar ulushi 88.6 % ni tashkil qiladi;
- o`rtacha ish haqqi 675 234.6 so`mni tashkil qiladi.

SHu bilan birga tumanda yosh bolalar solmog`i 53.160 tani, maktab o`quvchilari soni 27.796 tani, qariyalar soni esa 9 008 tani tashkil qiladi.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, tumandagi aholining 52 % ni mexnatga layoqatli aholi sifatida kiritamiz. Bu esa tumandagi asosiy ishchi kuchi salmog`ini belgilab beradi.

2-rasm



Tumanda 7 ta Qishloq Fuqarolar Yig`ini mavjud bo`lib (2-rasm) bular quyidagilar:

- Beshqo`ton
- Kildon
- Kulchabiy
- O`rtabuloq
- Navoiy nomli
- Sohibkor
- Fozil Yo`ldosh nomli

Beshqo`ton - Bulung`ur tumanining shimoli-g`arbiy qismida joylashgan. Bu qishloq fuqarolar yig`inida aholi 1993- yilda 14 696 kishini tashkil qilgan.

Aholi 2003 –yilga kelib 18 600 kishiga ko`paygan. 2012- yilda 14 743 kishini tashkil qilib, o`z ichiga 19 ta qishloqni oladi.

Bular quyidagilar: Saboloq (631 kishi), Oq qovun (639 kishi), Mitan (831 kishi), Paxtaboshi (1 592 kishi), Qorovultepa (1 549 kishi), Qizilqo`rg`on (727 kishi), Lalmikor (387 kishi), Eshmonto`p (568 kishi), Tumshuq (171 kishi), Yangiobod-1 (201 kishi), Mirzabuloq (189 kishi), Kattaqishloq (1 525 kishi), Temiryo`lchi (273), Ingichka (988), Tegirmon (904 kishi), Yangiobod (1 653 kishi), Xatcha (1 109 kishi), Mehnatobod (653 kishi), CHorbog` (150 kishi).

Kildon - Bulung`ur tumanining janubida joylashgan. Bu qishloq fuqarolar yig`inida aholi 1993-yilda 14 960 kishini tashkil qilgan bo`lib, ichki migratsiya tufayli ularning salmog`i oshib bordi. 2003-yilda aholi salmog`i 19 108 kishiga yetgan. Hozirda bu qishloq fuqarolar yig`inida 25 436 kishni istiqomat qilib, undagi qishloqlar 32 tani tashkil qiladi.

Bular quyidagilar: Ravot (572 kishi), Tinchlik (606 kishi), Tepa (528 kishi), Sart yuzi (227 kishi), Beshkapa (377 kishi), Jar (427 kishi), Sarqipchoq (1 745 kishi), Almat So`fi (660 kishi), Pastqishloq (1 494 kishi), Kal qishloq (956 kishi), Mo`g`ol (2 544 kishi), Ravot (558 kishi), CHorbog` (1 552 kishi), Bozorjoy (937 kishi), Yangi qishloq (654 kishi), Xo`jabachcha (854 kishi), Katta Xo`jabachcha (1 048 kishi), Nurafshon (400 kishi), Qarashki (699 kishi), Solin (1 197 kishi), Uyas (755 kishi), Beshkubi (1 555 kishi), Bekto`p (295 kishi), Dobil (434 kishi), CHuvilloq (262 kishi), Quvvat (542 kishi), Xolmurod (129 kishi), Xotam (93 kishi), Mullatubi (721 kishi), Parmontepa (903 kishi), Xo`jamazgil (688 kishi), Yangi (1 024 kishi).

Kulchabiy - Bulung`ur tumanining g`arbiy qismida joylashgan. Bu qishloq fuqarolar yig`ini 10 901 kishini (2012-yil) tashkil qiladi. Ammo 1993-yilda 14 730 kishini, 2003-yilda 18 630 kishini tashkil qilgan. Aholi salmog`ining oshib borishi bilan u yerdagi qishloqlar soni ham ko`paygan. Ularning soni hozirda 20 ta.

Bular quyidagilar: CHuyut (1 476 kishi), Yangiqishloq (354 kishi), Kattaquyonchi-1 (496 kishi), Yolg`izog`och (728 kishi), Katta Jonxo`roz (230

kishi), Qoraqo`ng`irot (734 kishi), Mang`it (787 kishi), Jonxo`roz (323 kishi), Navro`z (268 kishi), Zertosh (218 kishi), Kattaqo`yonchi (719 kishi), Oqtepa (696 kishi), Ochamoyil (508 kishi), Beshqush (363 kishi), Yomonquyonchi (471 kishi), Oqtambeshbola (945 kishi), Oqtamquyonchi (653 kishi), G`oyir (409 kishi), CHangal (100 kishi), Devonatepa (423 kishi).

O`rtabuloq - Bulung`ur tumanining shimoli g`arbida joylashgan. Bu yerda aholi 1993-yilda 14 476 kishini, 2003-yilda 18 107 kishini tashkil qilgan. Hozirda bu qishloq fuqarolar yig`ini 8 610 kishini tashkil qilib, o`z ichiga 6 ta qishloqni oladi.

Bular quyidagilar: Yangiqishloq (472 kishi), Bot-bot (2 078 kishi), Beshqo`ton (1 022), Tinchlik (730 kishi), Birlik (730 kishi), Bog`bon qo`rg`oni (2 324 kishi).

Navoiy nomli - Bulung`ur tumanining janubiy qismida joylashgan. 1993-yilda bu qishloq fuqarolar yig`inida 14 888 kishi istiqomat qilgan. 2003-yilda 18 790 kishiga ko`paygan. Hozirda bu yerdagi aholi salmog`i 25 732 kishini tashkil qilib, o`z ichiga 31 ta qishloqni oladi.

Bular quyidagilar: Beshbola (678 kishi), Omonturdi (411 kishi), O`tab (313 kishi), CHo`chqatubi (412 kishi), Esonturdi (624 kishi), Yangibesh (242 kishi), Yangiobod (719 kishi), Katta qishloq (1 949 kishi), Mirzaboshi (366 kishi), Ravot-1 (395 kishi), Sirt qishloq (255 kishi), Quvondiq (632 kishi), Erganak (905 kishi), Mextar (1 160 kishi), Qum (777 kishi), CHangal (2 105 kishi), Qum mo`g`ol (1 530 kishi), Ravot (999 kishi), Yerteshar (1434 kishi), Ashurtup (647 kishi), Mullaesagi (470 kishi), CHangal (591 kishi), CHangalpayon (600 kishi), Yangi qora (43 kishi), Xurmi (412 kishi), Qirqshodi (1301 kishi), Navbahor (526 kishi), So`loqli (1 105 kishi), Kaptarxona (1 607 kishi), CHambiltepa (645 kishi), Qirq axmat (1 879 kishi).

Soxibkor - Bulung`ur tumanining shimoli- sharqida joylashgan. Bu qishloq fuqarolar yig`ini 17 708 kishini tashkil qilsada, 1993-yilda 14790 kishini, 2003-yilda 18 700 kishi bo`lgan. Aholining o`sib borishi bilan bu yerdagi qishloqlarning soni ham oshib borib hozirda 19 ta hisoblanadi.

Bular quyidagilar: Kaltepa (135 kishi), Mo`min (1 668 kishi), Bo`dana (961 kishi), Qurolos (511 kishi), CHoyjuli (361 kishi), Olmozor (1 252 kishi), Qiyot (537 kishi), Besh-bola (311 kishi), SHo`rbedana (1 454), Oqtosh (1 324 kishi), Bolg`oli (1 434 kishi), Erganakli (2 206 kishi), Mingchinor (988 kishi), Qora kamar (1 211 kishi), Tumanovul (626 kishi), Yangi erganakli (1 080 kishi), Qurg`ozon (619 kishi), Tig`iriq (508 kishi), Oqtepa metan (522 kishi).

Fozil Yo`ldosh nomli - Bulung`ur tumanining sharqiy qismida joylashgan. Bu qishloq fuqarolar yig`ini 16 794 kishini tashkil qiladi. 1993-yilda 14 860 kishi, 2003-yilda 18 765 kishi bo`lgan. U o`z ichiga 16 ta qishloqni oladi.

Bular quyidagilar: Isori O`roqli (1 634 kishi), Katta O`roqli (1 166 kishi), Pastki Qashtang`ali (673 kishi), Olqortepa qo`rg`oni (423 kishi), Qirq qishloq (1 716 kishi), CHangal (1 223), Jomanjar (1 588 kishi), Qora ariq (1 488 kishi), Nebusa (1 180 kishi), Yuqori Qoshtang`ali (963 kishi), Qurg`ozon (852 kishi), Tig`iriq (598 kishi), Niyozmat (1 284 kishi), Tegirmon (975 kishi), Kapali (536 kishi), Rabot (495 kishi).

Tumanda shahar, shaharcha va qishloq aholi punktlarida aholi shu tartibda joylashgan. Bu qishloq fuqarolar yig`inlari bir-birlaridan joylashgan o`rinlari, iqtisodiy-ijtimoiy infertuzilmasi, ularning tarkibidagi qishloqlar soni, maydoni hamda mehnatga layoqatli aholi soni bilan farq qiladi.

2.2. Tuman qishloq joylar aholisining tabiiy harakati

Tuman qishloq joylar aholisining tabiiy harakati bevosita aholining takror barpo bo`lishida, tug`ilish, o`lim hamda tabiiy ko`payishi bilan tahlil qilinadi.

Aholining takror barpo bo`lishi jamiyat davomiyligini ta`minlovchi asosiy jarayon bo`lib, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir. Inson dunyoga kelib yashaydi, balog`at yoshiga yetib, farznd ko`radi, nasl qoldiradi. Bu uzviy jarayon tufayli jamiyatda avlodlar almashadi, aholi takror va takror barpo bo`layveradi. Aholining takror barpo bo`lishi jamiyatning mavjudligini, aholi

sonining o`sb borishini ta`minlovchi jarayondir. Lekin, u bevosita ijtimoiy – iqtisodiy muhit bilan bog`liq holda sodir bo`ladi.

Insonlar o`z hayotlari davomida boshqa insonlarni dunyoga kelishiga omil bo`ladi. Aholining takror barpo bo`lish jarayoni ijtimoiy muhit uchun ham muhim omil sanaladi. Ayni vaqtda insonlar o`z hayotlari uchun zarur narsalarni (oziq – ovqat, turar –joy va kiyim- kechak va h.k.) yaratib, ishlab chiqarishni rivojlantiradlar. Bu jarayonda insonning bilim, ilm darajasi, malakasi, hayotda uzoq umr ko`rishiga bo`lgan intilishi, harakati kuchayib boradi. Demak dunyoga kelgan inson jamiyatda yashashi bilan uning sifatiiy xususiyatlari ham rivojlanadi.

Muttaxasislar aholi takror barpo bo`lishini aholining uch asosiiy : tabiiy, hududiiy (migratsiiya) sotsial harakatlari yig`indisi sifatida tahlil etadilar.

Aholining takror barpo bo`lishida uning tabiiy harakati, ya`ni tug`ilishi va o`limi asosiiy omil hisoblanadi. Tug`ilishning yuqori bo`lishi aholi takror barpo bo`lishi jarayonini kuchaytiradi va aholi sonining ko`payib borishiga olib keladi. Avlodlarning almashinuvi, ularning uzoq yashashi esa o`lim jarayoniga bog`liqdir. O`z novbatida inson hayotida o`limning sodir bo`lishi qator endogen va egzogen omillar, hamda jamiyatdagi sotsial muhit bilan bog`liqdir. Inson hamisha uzoq umr ko`rishga intiladi. Har bir jamiyatda insonning uzoq umr ko`rishi, avlodlar salomatligi uchun ijtimoiy- iqtisodiiy imkoniiyatlar yaratadi. Natijada insonlarning uzoq umr ko`rishiga : o`lim xollarini esa sotsial chora-tadbirlar bilan boshqarishga erishiladi.

Avlodlarning uzoq umr ko`rishi, tashqi muhit bilan uzoq muloqotda bo`lishi uning demografik mayliga ham ta`sir ko`rsatadi. Aholi tez sur`at bilan kamayib borishiga ham omil bo`ladi. Natijada avlodlar o`rtasida tug`ilishni, ya`ni nasl qoldirishni boshqarish xollari keng tarqala boshlaydi. Demak, aholining takror borpo bo`lishi unig tabiiy harakatiga bog`liq. Aholining tabiiy harakati esa o`z novbatidagi sotsial muhit ta`sirida o`zgarib boraadi.

Ma`lum hudud davlat aholisining takror barpo bo`lishida aholining bir joydan ikkinchi joyga ko`chishi, ya`ni hududiiy harakati ham ahamiiyatlidir. Ilmiiy tadqiqotlarning ko`rsatishicha aholi takror barpo bo`lishining asosi bo`lgan

tug`ilish, shahar turmush tarzi ta`sirida kamayib borgan. Aksincha, qishloq turmush tarzi ta`siri tug`ilishni nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishiga olib kelgan. Aholining shahardan qishloqqa, yoki qishloqdan shaharga kelib yashashi bevosita uning reproduktiv mayliga ta`sir etib, tug`ilishning kamayishi yoki ko`tarilishiga olib keladi. Xuddi shunday aholining sotsial harakati uning ma`lumotlilik darajasini oshib borishi, ilm ma`laka ta`lab etgan xizmat doirasida faoliyat ko`rsatishi, tibbiy bilimlardan ko`proq habardor bo`lishi, uning uzoq umur ko`rishiga, nasl qoldirish, farzandlar ko`rishiga ham bevosita ta`sir ko`rsatadi.

Aholi takrpr barpo bo`lishida ya`ni yangi avlodlarning dunyoga kelib, insoniyat naslini davom etishida tug`ilish muhim demografik jarayon hisoblanadi. Demografik jarayonlarni mukammal o`rganishda, ularni turli aholi guruhlari, davlatlar, dunyo hududlari bo`ylab qiyoslashda, kelajak istiqbolini aniqlashda, demografik koeffisientlardan foydalaniladi. Ushbu koeffisientlar yordamida o`rganilayotgan demografik jarayonning kerakli jihatlari chuqur va qiyosiy darajada o`rganiladi. Ma`lum tarixiy davr yoki ikki hudud orasida demografik farqlarni statistik ma`lumotlar orqali bevosita aniqlab bo`lmaydi. SHuning uchun har bir demografik jarayonni maxsus ko`rsatkichlar, ya`ni koeffisient yordamida o`rganiladi. Buning uchun qayd etilgan demografik jarayonning, 1000 kishiga nisbattan bo`lgan miqdori aniqlanadi. Demak, 1000 kishi demografik jarayonlarni o`rganishda mezon hisoblanadi. Bu ko`rsatkich yuqorida qayd etilganidek "promille" deb yuritiladi va bu quyidagicha "O" belgilanadi. Demografik koeffisientlar umumiy, maxsus va xususiy jihatlarga egadir.

Tug`ilish ma`lum avlodlarni tashkil etuvchi aholi gurihidagi bola ko`rish jarayonidir. Tug`ilish biologik jarayon. Lekin u ijtimoiy- iqtisodiy muhit ta`sirida o`zgarib boradi. Jamiyatning ijtimoiy- iqtisodiy tarkibidagi o`zgarishlar tug`ilish darajasini belgilaydi. Tug`ilishning biologik asosi insonning pushtiligi, (plodovitas) nasl qoldirish, avlod qoldirish qobiliyatidir.

Tug`ilish, o`lim nikohga kirish, ajralish (nikohning bekor qilinishi, aholi migratsiyasi kabi demografik jarayonlarni sotsiolistik uslub yordamida o`rganish sotsiologik-demografik tadqiqot deyiladi. Bunday tadqiqotlar demografik

jarayonlarning turli avlodlarda, ijtimoiy guruhlarda, millatlarda va hududlarda xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillari mukammal o'rganiladi. Buning uchun o'rganilayotgan demografik jarayonlar va ularning omillarini aniqlashga oid savollardan maxsus so'roq varaqasi (anketa) tuziladi. Ular aholi o'rtasida suxbat o'tkazish, bevosita savol-javob yoki aholining o'ziga tarqatish yo'li bilan to'ldiriladi. Sotsiologik uslub bilan o'tkazilgan bunday tadqiqotlar demografik jarayonlarni o'rganishda, ularning xususiyatlarini to'g'ri aks ettirishda juda qulay hisoblanadi. Demografik jarayonlarni bevosita savol-javob, suhbat usuli yordamida o'rgananda statistik ma'lumotlar ifodalay olmagan jihatlari ham yoritiladi. Sotsiologik uslub, ayniqsa, O'zbekiston kabi qadimda demografik jarayonlari muntazam statistik ro'yxatga olib borilmagan hududlar uchun yana ham qimmatlidir. Chunki keksa avlodlar o'rtasida maxsus sotsiologik-demografik tadqiqotlar o'tkazib, qadimda demografik jarayonlar qanday bo'lganligi va ularga ta'sir etgan omillar haqida ma'lumotlar to'plab, birmuncha aniq tasavvurga ega bo'lish mumkin.

O'zbekistonda demografik jarayonlarni sotsiologik-demografik tadqiqotlar yordamida o'rganish 1928-1930 yillardan boshlangan. 1960-1970 yillardan boshlab esa mukamallashib, rivojlanib bordi. Ushbu tadqiqotlar yordamida respublika shahar va qishloq tumanlarida tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish kabi jarayonlar va ularga aholining bo'lgan munosabatlarini avlodlar bo'yicha alohida o'rganilgan, omillari, xususiyatlari aniqlangan.

Erkak bilan ayol, ya'ni nikoh juftlarining farzand ko'rishiga bo'lgan biologik qobiliyati pushtlilik deb ataladi va bu tushuncha demografiyada ko'proq ayollarga nisbatan qo'llanilib, har bir ayolning farzand ko'rish davridagi (o'rtacha 15-49 yosh) jami homiladorligi bilan belgilanadi. Pushtlilik erkak va ayolning biologik xususiyatlariga, salomatligiga bog'liqdir. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, sog'lom ayollar farzand ko'rish davrida eng ko'pi 35 tagacha homilador bo'lishi (egizaklar ham bitta homiladorlik hisoblanadi) mumkin ekan. Lekin har bir ayol o'rtacha 10-12 ta tirik farzand ko'rish, 10-15 marta homilador bo'lishi (o'lik tug'ilishi, bola tashlash holatlari bilan birga) mumkin. Tug'ilish tirik

tug`ilgan bolalarni ifodalovchi biologik jarayon bo`lib, u insonlarning reproduktiv mayli ya`ni farzand ko`rishga bo`lgan munosabati bilan bog`liq holda o`zgarib turadi.

Yuqorida qayd etilganidek, tug`ilishning umumiy, maxsus va xususiy koeffisientlari mavjud bo`lib, ular asosida tug`ilish darajasi aniqlanadi. Tug`ilishning umumiy koeffisienti. Har bir 1000 aholiga nisbattan tug`ilish bolalar sonini ifodalaydi.

Tug`ilishning umumiy koeffisienti yuqorida qayd etilganidek promillida hisoblanadi. Bu koeffisientdan tug`ilish darajasini ifodalashda ko`proq foydalaniladi. Uning yordamida ma`lum hudud yoki avlodlardagi tug`ilishda ro`y berayotgan o`zgarishlar umumiy tarzda o`rganilishi mumkin. Lekin tug`ilishning umumiy koeffisienti tug`ilish darajasini ifodalashda biroz dag`alliklarga yo`l qo`yadi. Chunki bu ko`rsatkichga aholining yosh va jiniy tarkibi bevosita ta`sir etadi. Agar o`rganilayotgan hudud aholi tarkibida farzand ko`rish yoshiga yetmagan bolalar (0-14) va farzand ko`rish yoshidan o`tgan keksalar (60 va undan yuqori yoshdagi aholi guruhi) salmog`i yuqori bo`lsa, tug`ilish umumiy koeffisientining biroz past darajada ifodalanishiga olib keladi.

Demografik vaziyatning shakllanishida o`lim ham asosiy jarayonlardandir. O`lim, aholi takror barpo bo`lishidagi asosiy jarayonlardan biri bo`lib, avlodlarni hayotdan ko`z yumishini ifodalaydi. O`lim jarayoni aholining turli yoshlari juda ko`p omillar ta`sirida sodir bo`ladi. Muttaxislar o`limga ta`sir etuvchi omillarni ularning kelib chiqishiga bog`liq holda ikki guruhga : endogen va ekzogen omillarga ajratadilar.

Endogen omillar ichki omillar bo`lib, inson organizmidagi o`zgarishlar (kasallanish, keksalik) bilan bog`liq bo`lgan omillardir. Ekzogen omillar esa tashqi omillar (urushlar, turli epidemiyalarning tarqalishi, baxtsiz hodisalar, tabiiy ofatlar va h.k.) bo`lib, ular tashqi muhit ta`sirida sodir bo`ladilar. O`lim jarayoni ma`lum aholi guruhlarida, avlodlarda , davlatlarda va jamiyat taraqqiyoti bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog`liq holda, inson hayotining turli davrlarida sodir bo`ladi.

O`limning umumiy koeffisientiga ham aholining yosh va jinsiy tarkibi bevosita ta`sir ko`rsdaytadi. Aholi tarkibida qariyalar salmog`ning ko`pligi o`limning umumiy koeffisientining ko`tarilishiga olib keladi. O`lim jarayonida bo`layotgan o`zgarishlarni aniq o`rganishda uning maxsus koeffisientlari (yosh guruhlari va jinslar bo`yicha alohida ifodalanadi) dan aniqlanadi

Insoniyatning paydo bo`lishi va jamiyatning rivojlanishi davomida aholi takror barpo bo`lishini boshqarish tizimida katta o`zgarishlar kuzatilgan. Aholining takror barpo bo`lishi, tug`ilish va o`lim jarayonlarini boshqarish orqali ma`lum maqsadga yo`naltiriladi. Aholining tabiiy harakati, aholi tabiiy o`shishi ko`rsatkichlari orqali ifodalanadi. Aholi tabiiy o`shishining absolyut va nisbiy ko`rsatkichlari mavjuddir.

Aholi sonining o`shishiga uning tabiiy va mexanik harakati bevosita ta`sir ko`rsatadi. Keyingi yillarda respublika aholisi singari Samarqand viloyati aholisi ham tabiiy ko`payish hisobiga o`smoqda. Ayni vaqtda sobiq ittifoqning parchalanishi bilan aholining tashqi migratsiyasi birmuncha kuchaydi va u ko`pincha salbiy natijaga ega bo`ldi. Bu o`z novbatida viloyat aholisining o`shishi va joylanishiga ta`sir qildi.

SHuningdek, so`nggi yillarda aholi tabiiy harakati ya`ni tug`ilish va o`lim hollarining biroz pasayganligini ko`rish mumkin. Bu esa viloyatda tabiiy ko`payishning kamayganligi va aholi o`shishining sekinlik bilan borayotganligidan dalolat beradi.

Viloyat aholisi 2005-yil 1-yanvar ma`lumotiga ko`ra 2867.1 ming kishidan iborat bo`lib, bu ko`rsatkich 1989-yildagiga nisbatan 756.3 ming kishiga ko`paygan yoki 135.8 foizga o`sgan; mazkur yillarda o`rtacha yillik ko`payish 1.90 foizga teng. Viloyatning 25.7 foiz aholisi, ya`ni 737.1 ming kishi shaharlarda, 74.3 foizi yoki 2130.0 mingga qishloqlarda yashaydi.

Viloyat hududlarida aholi sonining o`shishida ma`lum darajada tafovutlar mavjud bo`lib, tumanlarning tabiiy sharoiti va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi imkoniyatlariga mos ravishda turlicha shakllanadi.

Qishloq tumanlari aholi sonining 1989-2005 yillarda o`shish sur`ati bo`yicha uch guruhni ajratish mumkin. Ular quyidagilar:

1. Aholi soni o`shish darajasi yuqori bo`lgan tumanlar (148.0 foizdan ortiq):
Ishtixon, Payariq, Urgut, Tayloq;
2. Demografik rivojlanish sur`ati o`rtacha bo`lgan hududlar (131.7-147.9 foiz): Kattaqo`rg`on, Bulung`ur, Oqdaryo, Pastdarg`om, Narpay, Paxtachi, Jomboy va Samarqand tumanlari;
3. Aholi soni nisbatan sekin o`sayotgan tumanlar (131.6 foizdan kam):
Nurobot, Qo`shrabot.

Qishloq aholisining o`shish darajasi Bulung`ur (143.38 %), Urgut (143.38 %), Ishtixon (141.98 %) tumanlarida yuqori. Mazkur tumanlarda, viloyatning boshqa tumanlardan farq qilib, aholining yer bilan ta`minlaganlik holati ham ancha yxshiroq.

Samarqand viloyati aholisining milliy tarkibini tahlil qiladigan bo`lsak, respublikaning boshqa viloyatlariga nisbatan ko`p millatliligi bilan ajralib turadi. Viloyat markazi Samarqand shahri tarixiy shahar bo`lib, azaldan savdo va madaniyat markazi sifatida mashhur bo`lgan. SHuning uchun ayrim millatlarning mazkur hududda yashab kelishi uzoq o`tmishga borib taqaladi.

Viloyat shahar va qishloq aholisining milliy tarkibida birmuncha farq mavjud bo`lib, shaharlarda millatlarning ko`pligini kuzatish mumkin. Bunda rusiyzabon xalqlarining sanoat va ishlab chiqarishda bilim va tajribalari borligi sababli ilk bor shaharlarga kelib o`rnashgan. Ayni vaqtda ham mazkur millat vakillarining ko`pchiligi shaharlarda istiqomat qiladi. Maslan, ruslar shahar aholisining 8.04 foizini tashkil etsa, qishloq aholisida esa 0.18 foizdan iborat. Armanlarning ulushi shahar aholisida 1.24 foiz, qishloq aholisida 0.008 foizga teng. Bu jihatdan oradagi tafovut sezilarli darajada katta.


Bulung`ur qishloq tuman aholisining tug`ilish ko`rsatkichlari
(har ming kishi hisobida)

3-jadval

Tuman	1993	1995	2000	2003	2005	2008	2012
Bulung`ur	39.8	42.4	26.3	21.2	24.8	29.3	33.7

Xususan, Bulung`ur tumanida tug`ilish ko`rsatkichlari 1993-yilda 39.8 kishini tashkil qilgan bo`lsa, 1995-yilda 42.4 ming kishini, 2000-yilda 26.3 ming kishini, 2003-yilda 21.2 ming kishini, 2005-yilda 24.8 ming kishini, 2008-yilda 29.3 ming kishini, 2012-yilda esa bu ko`rsatkichni 33.9 ming kishiga o`sganligini ko`rishimiz mumkin.

3-rasm



Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki aholi o`rtasidagi tug`ilish ko`rsatkichlari yildan –yilga kamayib borayotganligini ko`rishimiz mumkin. Jumladan, 1995 yildagi aholi soni bilan 2012-yildagi aholi sonining o`rtasidagi farq qariyb (10 ming) kishiga tushib ketganligini ko`ramiz. Tug`ilishning nisbatan

kamayganligi bevosita aholi o`rtasida sog`lom turmush tarzini targ`ib qilish hamda “sog`lom ona, sog`lom bola” shiori ostida o`tkazilgan ishlar samarasidir.

Mamlakatimiz prezidenti I.A. Karimov tomonidan 2000-yilni “Sog`lom avlod yili” , 2001-yilni “Ona va bola yili” , 2005-yilni esa “Sihat-salomatlik yili” deb nomlanishining o`zi ham so`zimizning tasdig`idir. Bu tadbirlardan kelib chiqqan holda har bir oilada 3 yoki 4 farzand tug`ilishi norma sifatida kiritildi. Bundan tashqari har bir farzand o`rtasidagi farq ikki yilni tashkil qilishi shart. SHunda onaning ham bolaning ham sog`lig`ini ta`minlagan bo`lamiz .

Tumanda tug`ilish yaxshi muhofaza ostiga olingan bo`lib, bolaning ona qornidagi davridan boshlab parvarishla qilinadi. Onalar uchun har oyda ko`riklar tashkil etilib onalarning va bolalarning sog`ligi uchun turli maslahatlar beriladi hamda davolanadi.


4-jadval

**Bulung`ur qishloq tuman aholisining o`lim ko`rsatkichlari
(har ming kishi hisobida)**

Tuman	1993	1995	2000	2003	2005	2008	2012
Bulung`ur	6.1	5.8	4.8	4.9	4.6	4.8	5.1

Tumanda o`lim ko`rsatkichlarini kuzatadigan bo`lsak, 1993-yilda 6.1 ming kishi, 1995-yilda 5.8 ming kishini, 2000-yilda 4.8 ming kishini, 2003-yilda 4.9 ming kishini, 2005-yilda 4.6 ming kishini, 2008-yilda 4.8 ming kishini, 2012-yilda esa bu ko`rsatkich 5.1 kishini tashkil qilganligini ko`rishimiz mumkin.

Bulung`ur tuman aholisining o`lim ko`rsatkichlari (har ming kishi hisobida)



Yuqorida keltirib o`tilgan ma`lumotlarda o`lim ko`rsatkichlarining yildan-yilga kamayib borganligini ko`ramiz. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so`ng aholiga hizmat ko`rsatish sohalarining barchasi yuksak darajada rivojlandi. Xususan, rekratsiya hizmati, aholini turli xildagi mineral suvlar bilan davolash, balchiq muolajalari bilan davolash, massajlar, issiq qumlar bilan davolash yo`lga qo`yildi. Bu bevosita shahar joylardan yiroq bo`lgan hududlarda, tog` yon bag`rlarida joylashgan sanatoriyalarda tashkil qilindi. Chunki bu hududlar turli xildagi zararli gazlardan holi hudud hisoblanib o`zining havosi tozaligi bilan ham ajralib turadi. Meditsina sohasining ham yuksak darajada rivoj topishi insonlarning barcha ham ichki ham tashqi a`zolarini zamonaviy texnologiyalar yordamida davolash yordam berdi va shunga mos ravishda jahon andozalari darajasida jihozlandi.

Hozirgi kunda o`lim darajasiga bevosita va bilvosita insoniyatning o`zi sababchi bo`lib qolmoqda. Bu ham bo`lsa asr vabosi, butun dunyo bo`yicha (global) yechib bo`lmaydigan muammo OITS va Giyohvantlik muammolari

hisobiga to'g'ri kelmoqda. Biz bunday kasalliklardan yiroq yurishimiz va o'z hayotimizni asramog'imiz lozim. Miditsinaning rivojlanishi va muttaxislarning izlanishlari natijasida saratoon (rak) kasalligiga ham davo topildi. Birgina "ko'krak bezi saratoni" dan yuzlab ayollarimiz davo topmoqda. Bu ham o'z novbatida o'lim ko'rsatkichlarining nisbatan kamayishiga olib kelmoqda.


Bulung'ur qishloq tuman aholisining tabiiy o'sish ko'rsatkichlari (har ming kishi hisobida)

5-jadval

Tuman	1993	1995	2000	2003	2005	2008	2012
Bulung'ur	39.8	36.6	26.3	21.2	20.2	24.5	26.8

Tug'ilish va o'limning hosilasi sifatida tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarining yillar bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha: 1993-yilda 39.8 ming kishi, 1995-yilda 36.6 ming kishi, 2000-yilda 26.3 ming kishi, 2003-yilda 21.2 ming kishi, 2005 yilda 20.2 ming kishi, 2008-yilda 24.5 ming kishi, 2012-yilda bu ko'rsatkich 26.8 ming kishiga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin.

5- rasm



1995-yildagi tug`ilishning tug`ilishning ko`pligi, shu ilan birga o`limning ham nisbatan yuqori darajada bo`lsada, tabiiy o`shning yuqoriligi bilan ajralib turgan. Bulung`ur tumanida ham 2013-yilga kelib shart-sharoitlarning yaxshilanganligi tufayli tug`ilish ko`payishi, o`lim kamayishi hisobiga tabiiy ko`paymoqda.

Aholi tabiiy o`shini shahar, shaharcha, tuman, qishloqlar bo`yicha taqqoslashda uning nisbiy ko`rsatkichidan foydalaniladi. Absolyut ko`rsatkich asosida, hududni taqqoslab bo`lmaydi, chunki har bir hudud aholisining soni turlicha bo`lib, ulardagi tug`ilganlar, o`lganlar soni ham aholining umumiy soniga bog`liq bo`ladi va tug`ilganlar hamda o`lganlar aholinig tabiiy ko`payishiga sabab bo`ladi.

2.3. Bulung`ur tuman qishloq manzilgohlarining tarkibiy tuzilishi

Yer shari bo`ylab aholining joylanishi ma`lum bir o`lcham va tipdagi xilma-xil shakllarga ega aholi punktlarining tizimi hamda turini vujudga keltiradi. Demak, odamlarning doimiy yoki vaqtincha to`planadigan, mujassamlashadigan (konsentratsiya) joyi - aholi punktlari deb nomlanadi. Bu aholi punktlari odamlarning yashash joyi, moddiy va ma`naviy boyliklarni ishlab chiqaradigan va iste`mol qildigan markazlari, avlodlarning takror barpo bo`ladigan ijtimoiy hayot o`chog`i hisoblanadi.

Aholi joylashishining hududiy ko`rinishi, ya`ni shakli aholi punktlaridir. S.A. Kavalyov aholi va aholi punktlarini – inson tomonidan yaratilgan odamlar hayoti uchun zarur bo`lgan moddiy shart -sharoitlarga ega ma`lum bir hududda yashovchi aholining joylanishi, deb ta`riflaydi.

Aholi va aholi punktlarining joylanishida aniqlangan hududdagi aholi punktlari yig`indisi ularning bir-biri bilan aloqasi orqali to`rini tashkil etishini ham anglatadi. Mamlakat xo`jaligi va xalqlarning yashash sharoiti uchun aholi punktlari to`rining kengayishi, rivojlanishi va joylnishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, aholi va xo`jalikni geografik nuqtai-nazardan baholashda barcha aholi yashash punktlari tiplarini o`rganish zarurdir.

Aholini geografik o`rganishda ikki yo`nalish mavjud. Birinchidan, demografik yo`nalish ya`ni aholining o`sishi, yosh va jinsi, milliy tarkibi, takror barpo bo`lishiga ko`proq e`tibor berilsa, ikkinchisida yuqoridagi geografik jarayonlarning natijasi bo`lmish aholi punktari, ularning to`ri alohida tadqiq etiladi (Soliyev, Qarshiboyeva, 1999).

Jamiyat hayotining asosini moddiy boyliklar ishlab chiqarish tashkil etadi. Har qanday ishlab chiqarish faoliyati biron-bir aholi manzilgohining vujudga kelishiga, rivojlanishiga zamin bo`lib hizmat qiladi. Masalan, Murunyov oltin konining topilishi natijasida Zarafshon, Uchquduq shaharlarivujudga keldi yoki Qarshi va Mirzacho`l hududida yangi yerlarning o`zlashtirilishi qator aholi punktlarining barpo bo`lishiga sabab bo`ldi. Xilma-xil ishlab chiqarish faoliyati aholi va aholi punktlari o`lchami va shakliga turlicha ta`sir etadi. Jumladan, Muruntov oltin konining topilishi shu hududda aholining mujassamlashuviga (konsentrasiya) ga olib keldi. O`z novbatida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning boshqa turlari rivojlanishiga ham turtki bo`ladi.

Turli yiriklikdagi aholi punktlari, ularning yirik murakkab tizimlari aholining hududiy tashkil etish shakllaridir. Uning ijtimoiy tashkil etish shakllariga har-xil yosh va jins, millat, elat, kasb- hunarga mansub kishilar uyushmasi kiradi, ularga makomni jihatdan umumiylik shart emas. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholi punktlari muhim o`rin egallaydi. U xalq xo`jaligining hududiy tizimida tabiiy resurslar, ijtimoiy ishlab chiqarish va infratuzilma tarmoqlarini bir-biri bilan bog`lovchi ko`prik vazifasini bajaradi.

Yer sharidagi har bir alohida hudud aholi va aholi punktlari tarixiy, tabiiy shart-sharoit va etnografik jihatlaridan kelib chiqib xilma-xil o`ziga xos ko`rinishlarga ega. Jumladan, tabiiy shart-sharoit aholi punktlari joylashuviga ham bevosita, ham bilvosita ta`sir etadi. Qachonki, aholi punktlari uchun joy tanlanayotganda bevosita tabiiy sharoit bilan (rel`ef, suv bo`yi, shamol yo`li, seysmik, eroziya va boshqalar) bilan hisoblashmaslikning iloji yo`q. Agarda aholi punktlari ishlab chiqarish nuqtayi nazardan vujudga kelsa, tabiiy sharoit bilvosita ta`sir ko`rsatadi.

Har qanday aholi punktlarini geografik jihatdan majmualari tadqiq etishda avvalo unda yashovchilarning soni va tarkibi, bandligi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tutgan mavqeyi (madaniy, iqtisodiy va siyosiy) boshqa aholi punktlari bilan aloqasini mukammal bilish ta'lab etiladi va o'z novbatida yuqorida keltirilgan tarixiy, tabiiy etnografik tomonlarini ham hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholi punktlari rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri bu ijtimoiy-iqtisodiy omillardir. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar tufayli vujudga kelgan aholi punktlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yuksalgan sayin rivojlanib borayveradi. Masalan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi undagi mavjud turli hil aholi punktlarining ham eniga, ham bo'yiga o'sishiga olib keladi. Bir vaqtlar Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlari respublika viloyatlari tarkibida umuman bo'lmagan bo'lsa, keyinchalik, yuqorida sanab o'tilayotgan omillar tufayli kichik-kichik qishloqlar o'rnida yoki umuman aholi yashamaydigan joylarda yangidan yangi aholi punktlari barpo qilindi va ular bugungi kunda bir necha aholi punktlarini o'zida mujassamlashtirgan yirik viloyatlarga aylandi.

Aholi va aholi punktlarining joylanishi shakllari xilma-xil bo'lganligi bois ularni yirik ikkita tipga ajratishadi, tarqoq (dispers) va guruhlangan shakllari.

Tarqoq joylashgan aholi punktlari- yakka holda qurilgan yashash joyi bo'lib, ular ko'proq xizmat yuzasidan (fermerlar) tashkil qilinib, bir-biridan ma'lum bir masofadagi uzoqlikda joylashadi.

Guruhlangan holda joylashgan aholi punktlari- turli hil kattalikdagi shahar va qishloq aholi punktlari ko'rinishda bo'ladi. SHu boisdan ham bunday guruh ko'rinishidagi aholi punktlari ikkita-shahar va qishloq aholi punktlariga bo'linadi. "Qishloq, odatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda shaharga nisbatan passiv, zaifiroq aholi punkti hisoblanadi. SHaharlarning ko'p funksiyaligi, kattaligi, inovasiya, investisiya va infratuzilma salohiyatining kichikligi, iqtisodiyotning ko'p tarmoqliligi va yuqori darajada rivojlanganligi, aholi yashashi, o'qishi, davolanishi, ishlashi uchun imkoniyatlarning keng ekanligi, ularning ta'sirchanligi

hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim yoki majmualarda yetakchi ro'l o'ynashini ta'minlab beradi.

Qishloq shaharga ma'lum darajada bo'ysunadi, uni qishloq xo'jaligi xom ashyosi bilan, aholisini toza havo, suv, iqtisodiyotini ishchi kuchi bilan ta'minlab turadi. SHahar esa qishloqqa malakali kadrlar, qishloq xo'jaligiga mashina, asbob-uskunalar, mineral o'g'itlar, qurilish materiallari, zamonaviy servis hizmatini yetkazib beradi".

SHahar va qishloq aholi punktlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'rtasida aniq chegara o'tkazib bo'lmaydi. Sababi, shahar-qishloq oralig'ida ham qator aholi punktlari mavjudki, ular biri ikkinchisi bilan tutashib ketgan. Ammo, shunga qaramasdan, shahar va qishloqni bir-biridan ajratuvchi maxsus mezonlar ham borki, bu mezonlar turli davrlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Bulung'ur tumanida qishloq manzilgohlarining tarkibiy tuzilishi tumanda joylashgan bitta shahar, uchta shaharcha, yettita qishloq fuqarolar yig'ini hamda ularning tarkibiga kiruvchi 143 ta qishloqlar asosida shakllanadi. Tumanda joylashgan qishloqlarda aholining joylashuviga ko'ra mayda qishloqlar (500 kishigacha), kichik qishloqlar (500 kishidan 1000 kishigacha), o'rta qishloqlar (1000 kishidan 3000 kishigacha), katta qishloqlar (3000 kishidan 5000 kishigacha), yirik qishloqlar (5000 kishidan ziyod) bo'yicha taqsimlanadi.

Bulung'ur tumanidagi umumiy aholi soni 160 537 kishini tashkil qilib, ular tumandagi mahallalar, ko'chalar hamda qishloq fuqarolar yig'inlaridagi qishloqlarga bo'linadi. Tumanning o'zida 10 ta mahalla mavjud bo'lib, jami aholining 4991 tasi shu hududga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkichlarni quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin:


Bulung'ur tumanida joylashgan mahallalar va ularning tarkibidagi aholi, xonadon, ko'chalar soni

6-jadval

T.r	Mahalla nomi	Jami xonadon	Ko'chalar soni	Aholi soni
-----	--------------	--------------	----------------	------------

1.	Samarqand	580	10	4219
2.	Mexrjon	532	12	3430
3.	Navbahor	507	11	3418
4.	Bulung`ur	588	13	3200
5.	Do`stlik	582	12	3200
6.	Ulug`bek	478	8	3046
7.	Guliston	528	12	2938
8.	Istiqlol	350	15	2709
9.	A.Temur	496	13	2602
10.	Yangiqo`rg`on	350	13	1802

Tumanning o`zida 10 ta mahalla mavjud bo`lib, bular : Mehrjon mahallasi uning tarkibida 16 ta ko`cha, 532 ta xonadon, 3 430 ta aholi mavjud. Guliston mahallasida 12 ta ko`cha, 528 ta xonadon, 2 938 ta aholi mavjud. Do`stlik mahallasida 12 ta ko`cha, 582 ta xonadon, 3 200 ta aholi mavjud. Navbahor mahallasida 11 ta ko`cha, 507 ta xonadon, 3 418 ta aholi mavjud. Bulung`ur mahallasida 13 ta ko`cha, 588 ta xonadon, 3 200 ta aholi mavjud. Ulug`bek mahallasida 8 ta ko`cha, 478 ta xonadon, 3 046 ta aholi mavjud. Samarqand mahallasida 10 ta ko`cha, 580 ta xonadon, 4 219 ta aholi mavjud. Yangiqo`rg`on mahallasida 13 ta ko`cha, 350 ta xonadon, 1 802 ta aholi mavjud. Istiqlol mahallasida 15 ta ko`cha, 350 ta xonadon, 2 709 ta aholi mavjud. A.Temur mahallasida 13 ta ko`cha, 496 ta xonadon, 2 602 ta aholi mavjud.



Aholisi 3 423 kishini tashkil qilganligi uchun Bog`bon shaharchasini katta qishloqlar tarkibiga kiradi. Tumandagi qishloq fuqarolar yig`inlari ichidagi qishloqlarning aholisi 5000 ming kishidan oshmaganligi tufayli yirik qishloqlar tarkibiga kiritilmaydi. Aholisi 7000 ming kishidan oshganligi tufayli Bulung`ur tumanini shahar qatoriga qo`shamiz. Chunki uning aholisi 29 140 kishini tashkil qiladi.

7-jadval

Bulung`ur tuman qishloqlarining sinflarga bo`linishi

T.r	SHaharchalar va Q.F.Y. lari nomi	Mayda qishloqlar (500 kishi)	Kichik qishloqlar (500 dan 1000 kishigacha)	O`rta qishloqlar (1000 dan 3000 kishigacha)	Katta qishloqlar (3000 dan 5000 kishigacha)
	Kildon shaharchasi			1	
	Sohibkor shaharchasi			1	

	Bog`bon shaharchasi				1
1.	Beshqo`ton	6	8	5	
2.	Kildon	9	15	8	
3.	Kulchabiy	11	8	1	
4.	O`rtabuloq	1	1	4	
5.	Navoiy	10	12	9	
6.	Sohibkor	3	8	8	
7.	F.Yo`ldosh	2	6	8	

Bulung`ur tumanida yettita qishloq fuqarolar yig`ini mavjud bo`lib, tuman aholisining 1/4 qismi shu hududlarda joylashgan. Bu yerdagi eng yirigi Navoiy (aholisi 25 732 kishi) nomli qishloq fuqarolar yig`ini hisoblanadi. Bu fuqarolar yig`ini tarkibida o`rta qishloqlar 9 tani, kichik qishloqlar soni 12 tani, mayda qishloqlar esa 10 tani tashkil qiladi. Kildon (aholisi 35 436 kishi) qishloq fuqarolar yig`inida o`rta qishloqlar 8 ta, kichik qishloqlar 15 ta, mayda qishloqlar 9 tani tashkil qiladi. Sohibkor (aholisi 17 708 kishi) qishloq fuqarolar yig`inida o`rta qishloqlar 8 tani, kichik qishloqlar 8 tani, mayda qishloqlar esa 3 tani tashkil qiladi. Fozil Yo`ldosh (aholisi 16 794 kishi) nomli qishloq fuqarolar yig`inida o`rta qishloqlar soni 8 tani, kichik qishloqlar soni 6 tani, mayda qishloqlar soni esa 2 tani tashkil qiladi. Beshqo`ton (aholisi 14 743 kishi) qishloq fuqarolar yig`inida o`rta qishloqlar 5 tani, kichik qishloqlar 8 tani, mayda qishloqlar 6 tani tashkil etadi. Kulchabiy (aholisi 10 901 kishi) nomli qishloq fuqarolar yig`inida o`rta qishloqlar soni 1 tani, kichik qishloqlar soni 8 tani, mayda qishloqlar 11 tani tashkil qiladi. O`rtabuloq (aholisi 8 610 kishi) nomli qishloq fuqarolar yig`inida o`rta qishloqlar 4 tani, kichik qishloqlar 1 tani, mayda qishloqlar ham 1 tani tashkil qiladi.

III BOB. BULUNG`UR TUMANI QISHLOQ AHOLI MANZILGOHLARINING RIVOJLANISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

3.1. Qishloq joylar manzilgohlarining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi muammolari va istiqbollari

Qishloq xo`jaligining mamlakat milliy iqtisodiyotida va ijtimoiy hayotida tutgan o`rni va ahamiyati beqiyosdir. Buni uning respublika yalpi ichki maxsulotidagi ulushi, aholining turmush farovonligini ta`minlashdagi ahamiyati, qishloq xo`jaligida band aholi salmog`ining kattaligi, mamlakat eksport salohiyatida tutgan o`rni, ko`plab xo`jalik tarmoqlarining qishloq xo`jaligi bilan bog`langanligida ko`rish mumkin. Qabul qilingan “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturida agroiqtisodiyot tizimining rivojlanishiga alohida urg`u berilgan.

Bulung`ur tumanida qishloq xo`jaligi tarmoqlarini hududiy joylashtirishda tabiiy sharoitini, iqlim, relyef, suv, tuproq o`simliklar kabi omillarni inobatga olish katta iqtisodiy ahamiyatga egadir.

Bulung`ur tumanida fermerchilikni hududiy tashkil etish va rivojlanyirishda tumanning tabiiy sharoitidan kelib chiqqan holda fermer xo`jaliklarini hamda ixtisoslashuvini takomillashuvidagi istiqbolida katta samara berishi shubhasiz.

Qishloq xo`jaligida yetishtirilayotgan maxsulotlar bevosita aholi salmog`iga ham bog`liq bo`ladi. Bunga esa tumandagi migratsiya ko`rsatkichlari (kelganlar, ketganlar, mehanik harakatga) ham katta ta`sir ko`rsatadi. Mahsulotlarni ishlab chiqarishda aholi sonining ko`pligi e`tiborga olinadi. Ishlab chiqarilgan maxsulotlardan aholi salmog`i ko`pchilikni tashkil qilsa, maxsulotning tan narxining oshib ketishiga sababchi bo`ladi.

Xususan, Bulung`ur tumanida ham qishloq xo`jaligi yaxshi yo`lga qo`yilgan. Bir necha yillar oldin faqat dehqonchilikka asoslangan edi, tumanda hozirgi kunda yerlar xususiylashtirilib, qisqartirilib fermer va shirkat xo`jaliklarga bo`linib ketdi.

15-20-yillar oldin tumana mevalilik hamda uzumchilikka asoslangan edi. Paxta mavsumidan avval bu yerga hasharchilar kelib uzum uzar edilar. Uzilgan uzumlar tumanda joylashgan “Vinni zavodi” ga topshirilardi. Bu zavodda uzumlarga ishlov berilib, turli xildagi alkagol ichimliklar spirt, vino maxsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilar edi. Ammo uzum maydonlarining qisqarib ketishi, barcha yerlar fermer, dehqon xo`jaliklariga aylantirilishi bilan “ Vinni zavodi” ning yopilishiga sababchi bo`ldi.

Hozirda tumanda yangi zavod va sexlar qurilib ishga tushirilmoqda. Jumladan, “Afrosiyob meva quritish” zavodi va “Bulung`ur sabzavodlarini qayta ishlash va quritish” zavodlarining ochilishiga bir necha yillar bo`lgan bo`lsada, ularda faoliyat olib borayotgan ishchi kuchi asosan tumana va qishloqlardan kelgan mavsumiy ishchilar hisoblanadi.

Bu zavodlarda meva va sabzavodlar quritilib, qadoqlanadi. So`ngra chet elga eksport qilinadi. 2012-yilda ish faoliyatini boshlagan sexlardan biri “Bugatti-SHous” xususiy firmasi poyafzal ichlab chiqarishga asoslangan. Hamir maxsulotlarini ishlab chiqaradigan “Bahtiyor” makaron sexi ham ochilib o`z faoliyatini samarali olib bormoqda.

Bunday xususiy tadbirkorlar faoliyatining ko`payishi iqtisodiyotning qirralarining shakllanishi hamda rivojlanishiga zamin yaratadi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun oilaviy tadbirkorlikning joriy qilinishi, hunarmandchilik, mehnat qurollarini yasash, tikuvchilik, kashtachilik, to`quvchilik, pishiriq (qandolat) maxsulotlarini yaratishga keng imkoniyatlar eshigi ochilgan. Buning uchun xattoki kreditlar ham tashkil etilgan.

Qishloq joylarda ham obodonchilik, qurilish va yangilanish ishlari jadal sur`atlar bilan amalga oshirilmoqda. Bu ishlarning barchasi yuqorida aytib o`tilganidek qishloqlardagi fermer, shirkat va dehqon xo`jaliklarining homiyliklari tufayli tashkil qilinmoqda. Eng avvalo maktab muassasalarida taxsil olayotgan o`z farzandlari hisoblanmish yosh o`sib kelayotgan kelajak avlodlarning yorug`, zamonaviy xonalarda ta`lim olishlari uchun yangi ko`p qavatli barcha ta`lablarga javob beradigan maktab muassasalarini qurishga yordam berishmoqda.

Maktablarda o`qituvchilar tomonidan, o`quvchilarning darsni yaxshi o`zlashtirishi maqsadida turli xildagi to`garaklarning tashkil qilinishi maktablardagi o`quvchilarning dunyoqarashini hamda bilim saviyasini oshirishga yordam bermoqda.

SHu jumladan, meditsina markazlarining holatini yaxshilash ishlari ham olib borilmoqda. Zamonaviy diagnostika asbob uskunalarining o`rnatilishi, yangidan-yangi texnologiyalar bilan jihozlanishi qishloqda joylashgan ambulatoriyalar, shifo markazlarining yaxshilanishi aholining salomatligining yanada ta`minlanishiga yordam beradi.


Shuni ta`kidlash lozimki, tumandagi aholiga ko`rsatiladigan maishiy xizmat shahobchalarining asosiy qismi Bulung`ur shahrida joylashgan. Tumandagi boshqa shahar va qishloqlarda maishiy xizmat ko`rsatish shahobchalari juda kam. Shu sababli kelajakda tumandagi shaharchalar va katta qishloqlarda aholiga xizmat ko`rsatish soxalarini yanada kengaytirish maqsadga muvoffiq. Aholiga maishiy xizmat ko`rsatish shahobchalarining ko`payishi, aholini ish bilan ta`minlashda, mahalliy byudjetning ko`payishida asosiy manbalardan biriga aylanadi.

Qishloq markazlarida aholiga xizmat ko`rsatish sohalarining rivojlanayotganligini kichik bozorlarning yangicha ko`rinishidagi tashkil qilinishida, savdo shahobchalarining ochilishida, doimiy ovqatlanish markazlarining tashkil qilinishida, urush qaxramonlari uchun "Motamsaro ona" haykalining tashkil qilinishida, bayramlar, marosimlarni nishonlash uchun yirik inshoatlarning tashkil qilinishi qishloqlarning ham rivojlanib shaharcha hayot tarzining kirib borayotganligidan dalolatdir. Bu sohalarining rivojlanishi bevosita qishloqlarning keyin tuman istiqbolining rivojlanishiga sababchi bo`ladi. Bularning barchsi bevosita qishloq joylardagi aholi turmush sharoitini yaxshilash hamda unumdor yer maydonlaridan oqilona foydalanishni taqazo etadi.

Yuqorida qayd etilganidek tumanining umumiy yer maydoni 76 ming gektarni tashkil qiladi. Umumiy yer maydonining 54 773 gektari ya`ni 74.2 foizi qishloq xo`jaligida foydalanadigan yerlardan iborat.

Tuman umumiy yer fondining 5 400 gektari (0.7 %) tomorqa yerlariga, 2 300 gektari (0.3 %) o`rmonzoprlarga, 12 500 gektari (23 %) boshqa yerlarga to`g`ri keladi. Qishloq xo`jaligida foydalaniladigan yerlarning 27 230 gektari ya`ni 49.7 foizi haydalanadigan yerlardan, 17 207 gektari ya`ni 32. 7 foizi yaylov yerlaridan, 10 196 gektari ya`ni 19.6 foizi ko`p yillik daraxtzorlardan iborat.

6-rasm



Tumandagi jami haydalanadigan yerlarning 14 542 gektari ya`ni 54 foizi sug`oriladigan yerlardan, 12689 gektari (46 foizi) lalmi yerlardan iborat. Tuman yer fondini Bulung`ur tumanida yashayotgan aholi jon boshiga bo`linganda, aholi jon boshiga 0.46 ga yer to`g`ri keladi. Agar tumandagi haydalanadigan yerlarni tuman aholi soniga bo`lsak u holda aholi jon bopshiga to`g`ri keladigan haydalanadigan yerlar 0.17 gektarni tashkil qiladi. Ushbu yerlarning qariyb yarmi lalmi yerlardan iborat. Bu shuni ko`rsatadiki tumanda qishloq xo`jalik yerlaridan ayniqsa haydaladigan yerlardan iborat. Bu shuni ko`rsatadiki tumanda qishloq xo`jalik yerlaridan ayniqsa haydaladigan yerlardan oqilona foydalanish, shu

jumladan sug`oriladigan yerlardan tejamkorlik bilan foydalanish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Qishloq xo`jaligida ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish va rivojlantirish har bir hududning tabiiy va iqtisodiy sharoitiga bog`liq. Bu esa qishloq xo`jaligini ilmiy asosda ixtisoslashtirishni takomillashtirish, mehnat unumdorligini topbora yuksaltirish ta`lab etiladi. Har bir hududning tabiiy sharoiti unda qishloq xo`jaligining ma`lum bir soxasini joylashtirish va rivojlantirish imkonini bersa, sanoat va transport imkoniyatlari, mavjud texnika ta`minoti maxsulot ishlab chiqarishda mexanizatsiya darajasining o`shishi, yetishtirilgan maxsulotni istemolchilarga va qayta ishlash sanoat korxonalariga o`z vaqtida yetkazib berishni ta`minlaydi. Bugungi kunda qishloq xo`jalik tarmoqlarini joylashtirish va ixtisoslashtirish har ikkala tadbirni o`zaro uyg`unlashtirish qishloq xo`jaligida kam sarf xarajat ishlab chiqarishni hududiy to`g`ri joylashtirishda ham uni ixtisoslashtirishda bo`lgani kabi aholining qishloq xo`jalik maxsulotlariga bo`lgan ta`labini qondirish, tuproq unumdorligini saqlagan holda yuqori ta`minlash, maxsulot ishlab chiqarish, uning tannarxi kabi asosiy tomonlari asosiy mezon bo`lib hizmat qiladi. Shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Bulung`ur tumanidagi qishloqlarda 8 ta dehqon xo`jaliklari, 17 ta shirkat xo`jaliklari, 1129 ta fermer xo`jaliklari mavjud. Bu dehqon, shirkat va fermer xo`jaliklarida ish bilan band aholi soni 14 136 tani tashkil qiladi. Bu xo`jaliklar bevosita aholining bandlilik darajasini ham belgilab beradi.

Bulung`ur tuman qishloq joylaridagi shirkat, fermer, dehqon xo`jaliklarining joylashuvi, soni va band aholi soni

8-jadval

T.r	Shirkat xo`jaliklarining joylashgan o`rni va nomi	Fermer xo`jaliklar soni	Dehqon xo`jaliklari soni	Band aholi soni
1.	A. Mahsum	64		
2.	Beshkuvi	66	1	

3.	Bulung`ur	64	1	
4.	Do`stlik	71		
5.	Zarbdor	57		
6.	Kildon	35	1	
7.	F.Yo`ldosh	107	2	
8.	Mingchinor	93		
9.	Ulug`bek	103	2	
10.	O`zbekiston	82		
11.	Ipak Yo`li	65	1	
12.	Hamid Olimjon	87		
13.	Navoiy	78		
14.	G`o`bdin	80		
15.	Zarafshon	35		
16.	CHo`yontea	27		
17.	Amir Temur	15		
Jami:	17	1129	8	14 136

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki 17 ta qishloqning 6 tasidagina dehqon xo`jaliklari mavjud. Bular Beshkubida 1 ta, Bulung`urda 1 ta, Kildonda 1 ta, F.Yo`ldoshda 2 ta, Ulug`bekda 2 ta, Ipak Yo`lida 1 tani tashkil qiladi. Fermer xo`jaliklari eng ko`p joylashgan qishloqlar Fozil Yo`ldosh (107 ta) va Ulug`bek (103 ta) hisoblanadi.

Bulung`ur tumanining rivojlanishida ham qishloqlardagi ushbu xo`jaliklarning o`rni beqiyosdir. Hozirgi kunda qishloq xo`jaligining taraqqiyoti tuman, shahar istiqbolini belgilab bermoqda. Qishloq xo`jaligida yetishtirilayotgan sabzavod, poliz ekinlari iqtisodiyotning asosiy hom ashyo bazasi hisoblanadi. SHu bilan birga tuman, qishloq aholisining farovonlagini taminlashga, iqtisodiyotini rivojlantirishga, bozor infratuzilmasini yaxshilashga zamin yaratadi. SHuni qayd etish lozimki Bulung`ur tumanida dehqonchilik qadimdan rivojlanib kelgan. Tuman dehqonchiligi tarmoqlaridan dehqonchilik qadimdan mavjud bo`lgan.

Tumandagi sabzavodchilikning qadimdan mavjud bo`lgan turlari sabzi, piyoz, sholg`om, turp kabilar qatoriga ularning yangi turlari, jumladan pomidor, karam, baqlajon, bulg`or qalampiri, sarimsoq piyoz, rediska kabilar qo`shilgan. Hozirgi paytda tumanning qulay tabiiy va iqtisodiy sharoitini hamda aholining sabzavod maxsulotlariga bo`lgan extiyojining tobora oshayotganligini hisobga

olib, sabzavod va kartoshka ekinlari maydonini kengaytirishga katta ahamiyat berilmoqda. Sabzavodning nisbatan ko'p turlari tez buziladigan va uzoqqa yuborish qiyin bo'lgan maxsulotlardandur. SHu tufayli qayta ishlash korxonalariga yuborish ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. SHuni hisobga olib, o'rganilayotgan hudud aholisini yil bo'yi kartoshka, turli xil sabzavod va poliz maxsulotlari bilan ta'minlab turlicha ixtisoslashgan qishloq xo'jaligini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan , keyingi 5-yil ichida tumanda juda ham ko'plab ishlarni amalga oshirishga erishildi. Yangidan-yangi zamon ta'labidagi bino va inshootlarning qurilishi, aholini zamonaviy, barcha qulayliklarga ega bo'lgan uylar bilan ta'minlash maqsadida kichik katejlar, ko'p qavatli uylar qishloqlar va tumanda qurilib foydalanishga topshirildi. Kam taminlangan oilalar uchun kredit asosida berish ham joriy qilindi. Bularning barchasi aholining farovon turmushi kafolatidir.

Aholining salomatligini yaxshilash, davo maskanlarining holatini yaxshilash, yangi zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash yo'lga qo'yildi. Binolar atroflari bemorlarga estetik zavq berish hamda toza havoni ta'minlash maqsadida ko'kalamzorlashtirildi, daraxtlar ekildi. Kam ta'minlangan oilalar uchun bepul ko'riklar tashkil etildi. Tuman aholisining salomatligi har tomonlama muhofaza ostiga olingan. Kasalxonalarini kengaytirish hamda qayta qurish asosida mehnat resurslari salmog'ini oshirish, kasb- hunar kollejlarini tamomlagan yosh o'gil-qizlarni ish bilan taminlashni ham maqsad qilib qo'ygan.

Olib borilayotgan bunday obodonlashtirish, yangilanish ishlaridan yana biri bozorlarimiz ko'rkiga ko'rk qo'shish, ularni ham kengaytirish, tartiblash ishlaridir. Jumladan, aholining urf-odatlarini, mehmondo'stligini bilish uchun uning bozorlariga nazar sol deb bekorga aytishmagan. Tumandagi bunday yangilanishlar zamirida qishloq xo'jaligidagi dehqonlarning zahmatli va samarali mehnatlari yotadi.

Tumanda ham ta'lim sohasiga, nogironlarga, kam ta'minlangan oilalarga, boquvchisini yo'qotganlarga, urush faxriylariga yaxshi e'tibor berilgan. Umuman olganda tumanimiz hozirda kundan-kunga chiroy ochib bormoqda. Bu bilan

tumandagi barcha muammolar o`z yechimini topgan demoqchi emasmiz. Holi qilinishi kerak bo`lgan ishlar talaygina.

Jumladan aholining bandligini ta`minlash maqsadida ularga mavsumiy emas balki doimiy ish o`rinlariga ega bo`lishlari uchun to`rt mavsum davomida uzluksiz ishlaydigan korxonalar, zavodlar yoki sexlarni tashkil qilishimiz lozim.

Tumanda aholini ish bilan ta`minlash maqsadida, ishlab chiqarishni to`g`ri tashkil etish, kichik va o`rta ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, aholiga maishiy xizmat ko`rsatish aholining ish bilan ta`minlanishida muhim ro`l o`ynaydi. Ayniqsa, qo`shimcha ish joylarini kichik va o`rta biznes korxonalarini rivojlantirish asosida aholi bandligini yanada rivojlantirish, aholi bandligini yanada oshirish maqsadga muvoffiq hisoblanadi.

Qishloq joylarda ham aholini ishchi kuchi bilan ta`minlash uchun yetishtiriladigan mahsulotlarga qarab shu hududda ham kichik sexlar, zavodlarni tashkil qilish lozim. Bandlikni turli tarmoqlar orqali oshirsak tuman, qishloq aholisining chet mamlakatlarga chiqishining oldini olgan bo`lardik.

Umuman, tuman qishloq aholisini ish bilan to`liq ta`minlash uchun quyidagilarga e`tiborni qaratish lozim:

- qishloq aholisini ish bilan ta`minlashda mikrofirmalar, kichik korxonalar qurish;
- qishloq joylarida shaharlardagi zavod va fabrikalarning shahobchalarini ochish;
- qishloqlarda azaldan aholi shug`ullanib kelgan mahalliy hunarmandchilik faoliyatini kengaytirish;
- qishloq xo`jaligida yetishtiriladigan maxsulotlarni shu hududda qayta ishlab chiqarish uchun, qayta ishlovchi sanoat korxonalarini qurish maqsadga muvoffiqdir.

Tuman sharqiy qismdan tog`lar bilan o`ralganligi uchun bunday bahavo, so`lim go`shalarda inson salomatligini tiklash maqsadida rekratsiya markazlarini joriy qilish lozim. Tumanda, qishloqda yashaydigan yosh bolalarga maroqli dam olishlari uchun turli xildagi hiyobonlar, hayvonot bog`lari, parklar tashkil etilsa

maqsadga muvoffiq bo`lar edi. Ayniqsa ta`til vaqtida bolalarning bo`sh vaqtlarini tabiat qo`ynida, tabiatdagi hayvonlarning hayotini o`rganish bilan o`tkazsa atrof muhitga bo`lgan munosabatining o`zgarishiga, ularning ijobiy hislatlarini shakllanishiga zamin yaratgan bo`lar edik.

XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ishimni qishloq joylar aholisini o`rganishning iqtisodiy geografik jihatlarini Bulung`ur tumani misolida yoritishga harakat qilindi. Bulung`ur tumanida joylashgan qishloq aholi punktlarini va unda joylashgan aholi geografiyasini, iqtisodiy geografik jihatlarini nazariy jihatdan yondashgan holda o`rganildi.

Tumanda joylashgan qishloq joylar aholisining demografik xususiyatlari, migratsiya jarayonlari (kelganlar, ketganlar, mehanik harakat ko`rsatkichlari)ni, tabiiy harakatini, tumanda joylashgan qishloqlarning tarkibiy tuzilishini (unda joylashgan qishloq fuqarolar yig`inlari va undagi mayda, kichik, o`rta, katta va yirik qishloqlarning geografik jihatdan joylashishini keng miqyosda ko`rib chiqishga xarakat qilingan.

Baulung`ur tumani qishloq aholi manzilgohlarining rivojlanish muammolari va bu muammolar yechimidagi istiqbolli natijalar borasida fikr, mulohazalar yuritilgan.

Tumanda amalga oshirilishi lizim bo`lgan muammolar anchagina bo`lib, bular quyidagilar:

- qishloq aholi manzilgohlarida sanoat markazlarining yo`qligi muammosi;
- tuman va qishloqda oilaviy tadbirkorlikning yo`qligi muammosi;
- aholining doimiy ish o`rnlari bilan ta`minlanmaganlik muammosi;
- qishloq xo`jaligidagi maxsulotlarni yetishtirishdagi muammolar;
- tuman, qishloq manzilgohlaridagi rekreatsiya muammolari;
- yosh bolalar uchun dam olish maskanlarining yo`qligi muammosi;

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi taklif va mulohazalar ishlab chiqildi:

- qishloq aholisini ish bilan ta`minlashda mikrofirmalar, kichik korxonalar qurish;

- qishloq joylarda shaharlardagi zavod va fabrikalarning shahobchalarini doimiy qilib ochish;
- qishloqlarda azaldan aholi shug`illanib kelgan mahalliy hunarmandchilik faoliyatini kengaytirish;
- qishloq xo`jaligida yetishtiriladigan maxsulotlarni shu hududda qayta ishlab chiqarish uchun qayta ishlovchi sanoat korxonalarini qurish maqsadga muvoffiqdir;
- tumanning sharqiy qismida joylashga tog`larda tuman va qishloq aholisi uchun rekratsiya (davolanish va dam olish) maskanlarini tashkil etish;
- tuman, qishloqdagi yosh bolalar uchun hiyobonlar, parklar, milliy bog`lar va hayvonot bog`larini tashkil qilish.

Yuqoridagi yechilishi lozim bo`lgan muammolarni hal etsak Bulung`ur tumanining istiqbolini ta`minlagan bo`lar edik. Ammo bu muammolarni faqatgina so`zlarda aytganimizning o`zi kamlik qiladi. Buni amalga oshirish uchun esa yuqoridagi amaldorlardan ko`p kuch va izlanishlarni ta`lab qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki tumanda bu ishlarni amalga oshirish uchun poydevor yartilgan, faqatgina bu ishlarni amalga oshirish qoldi xolos. Bizning maqsadimiz esa qishloq joylardagi aholi turmush sharoitlarini har tomonlama yuksak pog`onaga ko`tarishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz- vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: “O‘zbekiston”-2010.-77 b.
2. Karmov I.A. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” mavzusidagi ma’ruzasini o‘rganish bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot.- 2011.-376 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma’ruzalarini o‘rganish bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 331 bet.
4. Asanov G.R. Aholi geografiyasi . T. “O‘qituvchi “ 1978.
5. Alisov N.V. Xorev B.S. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya mira . Maskva , 2000.
6. Borisov V.A. Demografiya - M 2001.
7. Bo`riyeva M. O`zbekistonda oila demografiyasi T.: Universitet 1997.
8. Bo`riyeva M. Demografiya asoslari. O`quv qo`llanma -T, 2001.
9. Bo`riyeva M. Aholi geografiyasi. T, 1999.
10. Mahammadaliyev R.Y. Toshkent viloyati qishloqlarining shakllanishi va rivojlanishi. Geografiya fan. nomzodi dots. T. , 1993.
11. Muhammedov O. Aholi tabiiy harakatining hududiy tafovutlari (Samarqand viloyati misolida). Geogr. Fan nomzodi dots. T. , 2007.
12. Nazarov M.I. , Tojiyeva Z.N. Ijtimoiy geografiya. O`quv qo`llanma. –T: 2003.
13. Qorayev S. O`zbekiston viloyatlari toponimlari – T.: O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005.
14. Qishloq taraqqiyoti va farovonligi. (Amaliy qo`llanma), -T.: “Ilm Ziyo” , 2009.
15. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O‘zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2010. 348 b.

16. Soliyev A. , Qarshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari . Toshkent , 1999.
17. Soliyev A . , Nazarov M. O`zbekiston qishloqlari. Toshkent , 2009.
18. Soliyev A.S. tahliriri astida Qishloq joylar demografiyasi . Toshkent 2005.
19. Soliyev A.S. , Ahmedov E. , Mahammadaliyev R. va boshqalar Mintaqaviy iqtisodiyot. Toshkent . Universitet 2003.
20. Tojiyeva Z.N. O`zbekiston aholisi. - Fan va texnologiya. Toshkent 2010.
21. Tojiyeva Z.N. Iqtisodiyot va demografik statistika. Toshkent 2002.
22. O`zbekiston milliy ensklopediyasi. Toshkent , 2001.
23. Ubaydullayev R., Ata-Mirzayev O., Umarova N. O`zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi.-T.: Universitet, 2006.-96 b.
24. [www. stat. uz](http://www.stat.uz).
25. [www. demoskop. ru](http://www.demoskop.ru)